

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA  
O'RTA MAHSUS TA'LIM VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI  
EKOLOGIYA KAFEDRASI

“V.85.02.00 — EKOLOGIYA YO'NALISHI UCHUN

**“A G R O E K O L O G I Y A”**

MAXSUS KURSIDAN

**MA'RUZA MATNLARI**

Farg'ona - 2009 yil.

Taqrizchilar:

Axmedov M. – b.f.d., «Zologiya» kafedrasi professori,  
FarDU.

Egamberdiev S.E. – k\x.f.d., professor, FerPI «Umumiy  
biologiya» kafedrasi professori.

## **№1 MA’RUZA.**

### **AGROEKOLOGIYa FANINING MAZMUNI, VAZIFASI, BOShQA FANLAR BILAN ALOQASI, QIShLOQ XO‘JALIK EKINZORLARIDA ORGANIZMLARNING PAYDO**

#### **BO‘LISHI.**

R Ye J A:

1. Kirish, fanning mazmuni, predmeti, vazifalari, ob’ekti, tadqiqot uslublari, fan oldidagi vazifalar.
2. Qishloq xo‘jaligi landshaftlari, organizmlarning kelib chiqishi.
3. Madaniy o‘simliklarning kelib chiqish markazlari. Ekologik omillar mutanosibligi qonuniyati.
4. Yovvoyi o‘simliklardan organizmlarni madaniy usimliklarga o‘tishi.

#### **I. KIRISH.**

Inconiyat tosh qurollar bilan er qazib dexkonchilik qila boshlaganiga ham millionlab yillar bo‘ldi, necha bor sayyoramizning evolyutsidon o‘zgarishlari natijasi bo‘lgan 20 asr oxirida ham dexkonchilik qilish madaniyati jadal o‘sib boryapti. Yerga egalik qilish, fan-texnika rivoji, ilmiy ishlarni yangi yo‘nalishlari kamol topishi bilan o‘ylaymizki, dexkonchilik maxsulotlari etishtirish ham madaniylashib boraveradi. Demak, erdan foydalanish ishlari, uni extiyot qilish, tiriklik xossalarni saqlab qoliki butun insoniyatni muqaddas burchi bo‘lib qolaveradi.

Tuproqshunoslik fanining asoschilaridan biri V.V.Dokuchaev tarifiga kura, turoq uni xosil qiluvchi oltita omillarning o‘zora aloqadorligi yig‘indisidir, yani iqlim, tuproq xosil qiluvchi jins joyning relef, tirik jonzotlar va inson faoliyatidir. Tabiiyki, biror omilni o‘zgarishi boshqasiga tasir etadi, tuproqni turlicha xossalari bilan paydo bo‘lishiga olib keladi. Olimning bug‘ g‘oyalari V.I.Vernadskiyni biosfera to‘g‘isidagi ilmiy ishlarida, V.I.Sukachevning biogeotsenologiya ta’limotida, shuningdek V.A.Kovda, uning shogirdlari tomonidan rivojlantirildi.

Yuqoridagi nazariy yo‘nalishlardan kelib chiqqan holda agroekologiya fani rivoj topmog‘i kerak.

Biosfera sof holatda saqlab turishda litosfera, gidrosfera va atmosferadagi garaenlarni bir-biriga uzviy bog‘langan va aloxida monitoring asosida o‘rganish, tekshirib turish va shunga ko‘ra yo‘nalishlarni belgilash olimlar va amaliyotchilarni burchi bo‘lishi lozim. Har qandai ekolog tabiatni tang axvolga olib kelayotgan 3 ta sababni bilishadi, Yani bular: tabiiy boyliklarni tobora kamayib borishi, aholii tez o‘sib borishi natijasida keng miqqosda yashash uchun zarur manbalarni ishlatilishi tayyorlashdan ko‘ra tezroq o‘sib borishi va biosfera komponentlarni uzviy bog‘liqligi. Biosferani turli ifloslanishlari, unga nazoratni etarli bo‘lmasligi, havo, tuproq, suv, o‘simlik-larni zaxarli birikmalar bilan ifloslanishi butun koinotdagi tirik mavjudotlarni zaxarlanishiga olib keladi.

Xullas, atmosfera, pedosfsra va litosfera erda xayot paydo bo‘lguncha mavjud bo‘lgan, biroq tirik mavjudotlar paydo bo‘lishi bilan biz «atrof-muxit» deb nomlagan ibora paydo bo‘ldi. Atrof muxit – bu tashqi omillar birligidir, ular tirik marjudotlarga, yani biotipdagi biotsenoza tasir ko‘rsatadi. Tashqi omil-faqat tirik jonzot uchun yaratilgan u faqat fizik omildan iborat bo‘lmay balki birlikdagi yashayotgan organizmlar majmuasidir. Jonzotlar egallab olgan muxitni erni ekosferasi deb aytamiz, uni biz yana ikkiga ajratishimiz mumkin: I) biogeosfera-ekosferani quruqlik bo‘limi. 2) biogidrosfera-denganda, okean-lar, biosfera atmosfera va litosferani orasidagi kichikrok kavatdir, masalan, daraxtlar 70-100 mertdan oshmaydi, ular ildizi mikroorganizmlar yashayotgan muxit erni bir necha metrigacha boradi. Birogidrosferada 100 m. chuqurlikgacha, yani yaxshi yoritilib turgan o‘simplik, suv o‘tlar va undan pastda doimiy yashab turgan getorotrof mikroorganizmlar va o‘sha erga moslashgan hayvonlar yashaydi. Ana shu 2 qismda butun biomassani 99 foizi xosil bo‘ladi, chunki ular quyosh nurini to‘plab yashash uchun maksulot etkazib turadi.

Shu o‘rinda agar biz gidrosfera, atmosfera va litosfera xaqida qisqacha to‘xtalib o‘tishni lozim deb topdik. CHunki uzoq geologik o‘tmishda birinchi o‘simplik paydo bo‘lganda birinchi bor suv, havo va tog‘ jinsi «uchrashganlar» shundan buyon gidrosfera, atmosfera va litosfera o‘simplik uchun tashqi omil bo‘lib qolgan, shundan so‘ng o‘simplik, morgilar, jonzotlar ishtirokida nixoyat tuproq yoki pedofera kelib chiqqan.

Gidrosferaga danyo okeanlari (71 foiz er shari maydoniga nisbatan), dengizlari, daryo, ko‘l, er osti suvlari kiradi. Ammo dengiz suvi tarkibida ionlardan  $\text{Na}^+$ ,  $\text{Mg}^{2+}$ ,  $\text{Ce}^{-2}$ ,  $\text{SO}_4^{2-}$  hamda 85 g.l-gacha tuz bo‘lsa, toza suvda  $\text{CA}^{2+}$  va  $\text{HCO}_3^-$  ionlari ko‘p bo‘lishi bilan farqlanadi.

Atmosfera erni havo qismi bo‘lib asosan kislород (21 foiz), azot (78 foiz) va karbon 2 oksidi (0,03 foiz) bilan boyitilgan yoki o‘simpliklar uchun  $\text{CO}_2$ , O va suv bug‘larini xosil qilib beradi. Atmosferani erga yaqin (ustki) qismini troposfera deb ataladi, ya’ni mintaqalar bo‘yicha yoxud kichikroq joylarda havo er usti iqlimini zo‘garishlari bo‘lib turadigan qavat.

Litosfera – er qobig‘i, po‘stlog‘i bo‘lib ko‘p xil kimyoviy elementlarni, tirik jonzotlar uchun makon va ovqat vazifasini o‘taydigan qavatdir. Bu sfera gidro va atmosfera bilan bog‘lovchi qism deyiladi, umuman tuproq hosil bo‘lishni boshlang‘ich nuqtasidir. Demak, tuproq fizik – 3 sistema bo‘lib, qattiq (litos-fera), suyuq (gidrosfera), gazsimon (atmosfera) qismlardan iboratdir.

Ekologiya- so‘zi grekcha, oykos- uy, makon, yashash joyi manosida ishlatilgan, logos fan demakdir. Demak, tirik organizmlarning tashqi muxitga munosabatini ekologiya (fani o‘rgatib, u avvalo o‘simpliklar, hayvonlar, inson va mikroorga-nizmlar faoliyatiga antropogen, texnogen, biogen va boshqa juda ko‘plab ta’sir qilib turgan omillar majmuasini o‘rgatar ekan. Eramizdan avvalgi 372-278 yillarda Teofrast ko‘p yillik ma’lumotlarini o‘zaro taqqoslashi natajasida

o'simliklarni o'sishi iqlim, tuproq va parvarishlash sharoitiga bog'liq ekanli-gini topdi. Va nixoyat XIII asrda A.Velikiyu ekologik masalaga to'xtalib, o'sim-liklar qishki tinim davridagi holatini, ularni oziqlanishi iqlimga, tuproqqa va issiqlikka bog'lik xolda o'tishini bayon etgan. Bu ishlarni K.Linney ko'plab malumotlar bilan boyitdi. Keyinrok, XIX asrda P.S.Palles (1741-1811), I.I.Lepexin, keyinchalik A.N. Beketov (1825-1902) biologik kompleks xaqida o'z fikrlarini bayon etadi, u o'simliklarni ekologik-fiziologik klassifikatsiyasini taklif etdi.

1877 yilda K. Mebius "biotsenoz" tushunchasini taklif etdi, bug' so'z ostida u tur va zotlarning ko'payishi tufayli ular egallab turgan joyni "jamoa" deb tushundi.

1913 yilda nems botanigi O.Drudening "Ekologiya rasteniy" kitobi ungacha bayon etilgan shu soxadagi ishlarni davomi bo'ldi.

XX asr boshlarida AQSh-da ekologiya fanida yangi yo'naliш kelib chqishi, yani tuprokning xar-xil xossalari (sho'rangan gipsli va xokozo) ko'rsatkich – o'sim-liklar xaqida ta'limot yaratildi. Bu ishlar 1920 yilda Kliment o'simliklarni o'sish sharoitini indikator sifatida foydalanish mumkin ekanligi bayon etildi. Keyinchalik L.A.Ivanov, N.A.Maksimov, O.V.Zalenskiy, P.A.Genkel, A.P.Sheni-kov, I.M.Kultiasov va X.M.Oxunov kabi olimlar o'simliklarni yorug'lik, xarorat, namlik va boshqa omillar turli jixatlarini bayon etishdi.

Keyingi 40 yil ichida bu fan dunyo bo'yicha xalqaro dastur asosida rivoj-lanmoqda, ko'plab uslubiyotlar yaratildi, ekolgiyani o'nlab bo'laklari kelib chiqdi, jumladan agro (dehqonchilik) ekologiya faniga ham asos solindi.

Tuproq ekologiyasi xaqidagi muammolar majmuasi xozircha etarli o'rganil-magan, chunki tuproqni butun ekosistemani yagona tayanchi va butun biosferani saqlovchi vositadir. Tuproqni ko'p qirrali vazifalari borligi hammaga ayon, ammo uning turli tomonlari to'liq o'rganilmagan. Tuproqni ekologik funktsiyasi tuproq xossalari, undagi yashovchi barcha jonzotlar, yashab turgan o'simliklar bilan, shuningdek, inson faoliyatini ularga tasiri bilan o'zgarib turadi, bunda ana shu tizimlar bo'yicha yagona monitoring yaratishni taqozo etadi. Tuproqni ekologik funktsiyasi xakidagi ta'limotni yaratishda V.R.Vilyams (1949), V.R.Volobuev (1963), M.S.Gilyarov (1973), L.A.Grishina (1910, G.V.Dobrovolskiy (1986), V.A.Kovda (1981), D.A.Krivolutskiy (1969), Kuk Dj (1970) X.K.Makeev (1980), V.G.Mineev (1984), A.S.Orlov (1974), E.Raosel (1955), N.V.Tishler (1971) va ko'plab olimlarni ishlarni keltirish mumkin.

Tabiatda ekologik omillar doimo birgalikda bo'lib kelgan, ammo kar doim bir xilda kechmaydi, ular o'zaro bog'langandir. Masalan, quyosh yorug'ligini kamayishi havo va tuproq xaroratini, uning namligini, undagi mikrobiologik jarayonlarni va boshqalarini o'zgarishiga olib keladi.

Ko'p tomonlama yuz berayotgan ekologik omillarni quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin:

- 1) Iqlim omillari-havo va uni xarakati, yorug‘lik, issiqlik, yog‘inlar va havo namigi, elektrik xodisalar (momoqaldiroq).
- 2) Tuproq-suv omillari-mexanik tarkibi, fizik xossalari, kimyoviy va mikrobiologik holati va er osti suvlari.
- 3) Topografik omillar relef.
- 4) Biotik omillar hayvon va o‘simgiliklari.
- 5) Antropogen texnogen omillar-insonni turli darajada ekologik muxitga ta’siri.

Yuqoridagi 1,2,3 guruhlar fizik-geografik omillar deb nomlanadi.

Iqlim omillari ba’zan geografik omillar deb ataladi, chunki u geografik koordinatlar (kenglik va uzunlik) va dengiz satxidan balandligi bilan farq qiladi, ular ichida yorug‘lik va issiqlik quyoshni yoritish darjasini va x.z.

Tuproq-suv omili ba’zan edofas deb nomlanadi (edofas-tuproq demakdir). Yuqoridagilar bir-biridan farq qiladi, ular o‘zaro juda bog‘liqdir. Masalan, tupoq sharoiti iqlim bilan uzbekiy bog‘liq. Atmosfera omilini o‘zi-ya’ni havo tupoq ichiga kirib uni bir bo‘lagi bo‘lib qoladi, natijada tuproq havosi, tupoq namligi, xarorati, tupoq iqlimi deb nomlangan xossalarińı koxsil qiladi. o‘z navbatida tupoqdan atmosferaga havo, yorug‘likni bir qismi suv bug‘ini, xar xil gazlarni (ildiz va mikroorganizmlar) chiqarib turadi.

Topografik va biotipik-omillar o‘z navbatida atmosferaga va edofosga kam ta’sir etib turadi. Isonni ongli ta’siri natijasida qayd etilgan omillarga oz bo‘lsada ta’sir etib turadi.

Ekologik omillarni o‘rganishda doimo biz quyidagilarga amal qilishimiz kerak:

- 1) Ekologik muxit omillarini (elementlarini) o‘zaro aloqadorligi birlikda ekanligini, chunki bir omilni o‘zgarishi boshqasiga ta’sir etishini, tabiat bu laboratoriya emas, unda bir omilni o‘zgarishi boshqasini o‘zgartirib yuboradi. Bu qoidani yodda tutmoq darkor.
- 2) Xar bir ekologik omil va ularni birgalikdagi uyushmasi o‘zaro bog‘liq ammo xar birini o‘z o‘rni bor, xar bir rivojlanish fazasida aloxida adamiyatga egadir. Xar bir omil o‘simgilik xayotida zarur fazasida foydali, u vaqt utishi yoki ertaroq kelsa, zarar keltiradi. Demak o‘z vaqtida etarlicha qilib ta’min etish kerak.
- 3) Ekologik omil o‘simgilik uchun mexanik ta’sir etishi (sinish, yotib qolish) yoki umuman ta’sir etmasligi mumkin chunki o‘simgilikni ichki tuzilishiga ta’sir etishi, to‘qima va xujayrani bo‘linish, o‘sish va fiziologik jarayonlariga ta’sir o‘tkazib turadi, shuning uchun o‘simgilikni o‘sishi va rivojlanish qonuniyatları yaxshi o‘rganib unda kechayotgan barcha jarayonlarni g‘o‘liq o‘rganish kerak, shunga ko‘ra o‘simgilik ekologik muxitga ko‘nikib qolishi mumkin, ularni o‘zi uchun muxit yaratadi deyish mumkin.

## **2. QIShLOQ XO‘JALIK LANDShAFTLARI ORGANIZMLARINING KYeLIB**

## CHIQISHI.

Yer yuzasini turli iqlim va ob-havo sharoitida turli xildagi landshaftlar (manzara. Ko‘rinish) hosil bo‘lgan, buni biz Amerikadan tortib Yevrosiyo kengliklariga cho‘zilib ketgan Tundra zonaisda ko‘ramiz, bu kenglik o‘zida nina bargli o‘rmonlar, tayga kabi katta maydonni egallab olgan. So‘ngra janubga tomon, iqlim o‘rtamiyon viloyatlarga, Yevropa, Sharqiy Osiyo, Shimoliy Amerikani Atlantika okeani soxillarigacha yogi yashil urmonzorlarni ko‘ramiz. Ana shu o‘lka Oxozirgi vaqtida er yuzi aholisini eng katta qismi yashaydi, tsivilizatsiyava xo‘jalik faoliyatiga o‘ta bog‘lanib qolgan o‘lkadir. Bu erlarda o‘rmonlar birinchi paydo bo‘lgan davrga qaraganda keskin kamaygan yoki madaniy o‘rmonlarga aylangan joylardir. shUningdek, Yer yuzasini katta maydonlarida Qurg‘oqchil o‘lkalar egallab olgan oblastlar borki, ularda namlik chegaralangan, bu erdlarda cho‘l, dasht,sovannalar, yoki quruq o‘rmon. YOng‘in ko‘p bo‘ladigan rayonlarda esa (tropiklar) gurkirab o‘sgan o‘rmonlarni ko‘rish mumkin. Bu ikkalsaidan tashqari litoral tip landshaftlar mavjud bo‘lib, ko‘pincha suv xavzalariga yaqin joyda, dengiz, botqoqlar, suv bosgan qirg‘oqlar, botqoq-o‘rmonzorlar kabi joylarni ko‘rsatish mumkin.

Inson landshaftlari o‘zgartirib kelayotgan bo‘lsa ham, ya’ni dehqonchilik va chovachilik, qurilish va sanoat korxonasi solib, o‘rmon va suv xo‘jaligi tashkil etayotgan bo‘lsa ham baribir landshaftlarga bog‘liq bo‘lib qolaveradi. Bir halq egallagan maydonlarni ikkinchisi o‘zlashtirganda ham o‘sha erdagi yashash fayzi, tabiatdan foydalanish me’yorlari o‘zgarmas bo‘lib qoladi.

Ma’lumki, er yuzasi muzlikdan xoli bo‘la boshlaganda oqar suvlar Yevrooiyo va Shimoliy Amerika orqali o‘tgan. Keyinroq oqar daryolar xosil bo‘lgan, atrofda xar xil yotkiziqlar xosil bo‘lgan. Demak, tupoq minerallarini xosil bo‘lishida er osti suvlar bilan ta’milanish o‘z ta’sirini ko‘rsatadi, qirg‘oqlarda o‘rmonzorlar paydo bo‘ladi, daryolar quyadigan suvi bilan tupoq va boshqa mine-rallarni dengizga oqizadi, natijada sho‘qli o‘tloqzorlar xosil bo‘ldi. O‘rmon-zorlarga momaqaldiroq tushishi natijasida yong‘inlar xosil bo‘ldi, yalangliklar paydo bo‘lib, bu erlarda ba’zan suv xavzalari shakillandi, goxo ular katta maydonni egalladi, o‘rmonlarni bosdi. O‘sha suvdagi hayvonlarga ovkat etishmasligi kelib chiqdi, ularni soni kamaydi, ko‘llar qurib, o‘tloqlar xosil bo‘ldi. Daryolar uz yo‘lini o‘zgartirdi, yangi o‘tloqzorlar paydo bo‘lib, o‘sha erlarni hayvonot olami ularni nobud qildi, natijada yaylovzorlar paydo bo‘ldiki, erni unum dorligi asta-sekin yaxshilanadi, inson bu joylarda dexqonchilik qilishga odatlandi. Dashtli o‘tloqlarda esa boshqacharoq manzarani ko‘rish mumkin bo‘ladi, uzoq davom etgan qurg‘oqchilik oqibatida kishilar ko‘chmanchi holatga o‘tdilar, yuz yillar davom etgan ko‘chishlardan so‘ng ular o‘troq holatga o‘tadilar, erlardan jadal foydalanish boshlanadi, dashtlar cho‘lga aylanish xavfi kelib chiqadi, mezofil o‘simliklar va ular bilan ovqatlanadigan

hayvonlar kesrofil jonzotlar bilan almashinadi, bu holat taxminan eramizdan 6000 yil avval bo‘lib o‘tgan.

Inson tabiatga faol ta’sir utkaza boshlagandan keyin o‘rmonlar manzarasi o‘zgardi, dehqonchilik va chorvachilik insonga “qaram” bo‘la boshladi, ya’ni ularni ta’sirisiz yaxshi o‘smaydigan bo‘lib qoldi. Bu davr yangi tosh davriga to‘g‘ri keldi. Bungacha inson olv bilan tabiatga ko‘proq ta’sir etgan bo‘lsa, endi erni ishslash, avvalo omoch bilan, keyin plug bilan, sug‘orish ishlari olib bordi, botqoqni quritdi. Ko‘plab foydali o‘simliklarni ekdi, hayvonlarni qo‘yib yuborish tartibga solina boshlandi. mezofil o‘rmonlar o‘rniga. (ular yoqib yuborildi) o‘tloqzorlar va xaydalananadigan erlar kupaydi Botqoq erdag‘i o‘rmonlar ildizi orqali ko‘payadigan o‘tlar o‘sib chiqdi. Ularni vakti-vakti bilan o‘rib turish erdag‘i chirindini ko‘paytirdik. Xaydash oqibatida unumdar tuproq paydo bo‘ldi. Qurg‘oqchil zonadagi o‘rmonzorlar o‘rnini uzumzorlar, mevali daraxtlar egalladi, o‘z navbatida shu erga chidamli o‘t o‘simliklarni ko‘payishiga olib keldi. Boshoqli dalalar qo‘y-echkilar boqadigan yaylovga aylandi. Ison aralashuvining ming yilliklar davomida tabiat qo‘ynidan minglab gektar maydoi ekinzorlarg‘a aylanti-rildi, natijada 14,5 mlrd.ga ekin esa yarokli deb xisoblangan maydon xosil beradi. Dunyo materiklarida xozirga kelib dexkonchilik kilishga makbul bo‘lgan 4,5 mlrd. ga chamasidagi ernen 1,5 mlrd. gektari sug‘orib dexkonchilik kilish rusumiga o‘tgan. Demak, tabiiy landshaftlar o‘z ko‘rinishini suniyya almashtirib berishi insoniyatni ozik-ovqatga bo‘lgan extiyojini qondirishga xizmat kilyapti. Bunda tabiiy penozlar ahamiyati yuqori me'yorda bo‘layotganini kayd etish kerak, Madaniy landshaftdagi mavjudotlar, yoki biotoplar ma'lum joyda yashab kelmagan, ular inson yordamida ongli yoki boshqa sababdan kelib. kolgan, ularni yashovchanligi inson faoliyatiga boglik bo‘lib qoladi.

### **3. MADANIY O‘SIMLIKLARNI KYeLIB CHIQISHI MARKAZLARI**

Ko‘pchilik madaniy o‘simliklar tog‘li mintakalardan kelib chiqqani biologiyada ayondir, bunday xulosalarga kelishda Vavilov V. (1928) ishlari aoos bo‘lgan. Bug‘ markazlar asosan janubiy Farbiy Osiyo, O‘rta Yer dengizi, Afrika-ning Abissin tog‘ tepalarida, Xindiston, Janubiy-Sharqiy Osiyo, Markaziy Amerika tog‘li rayonlari, Boliviya-Peru tog‘li rayonlari xisoblanadi. Ana shu markazlardan uzoqlashgan sari o‘simliklarni soni hamda chidamli turlari soni kamayib boradi. Areal chegarasida esa bir xil formalarni ko‘payishi kuzatiladi

Boshqa arealda turlar yangi joy topib ketsa, yani-yashash formasi moslashib qolsa “ikkinchi markaz” deb nom berilgan. Eng ko‘p turlarni o‘z. ichiga olgan Janubiy-G‘arbiy Osiyodan to Kavkazgacha, Kichik Osiyodan Pomirgacha bo‘lgan tog‘lardir. Ana shu erlardan xozirda ekilayotgan bug‘doy turpari kelib chiqqan bularga oddiy bug‘doy, javdar, suli, ikki qatorli arpa, zig‘irnn mayda urug‘li- formalari chechagida, dukakli, dika faba, no‘xat, beda,

piyoz, shuningdek asosiy mevali daraxtlardan olma, nok, olxo‘ri, olcha va gilosinig vatani xisoblanadi

Ikkinci katta markazdan bri o‘rta er dengizi qirg‘og‘idagi landshaftlar va tog‘li rayonlardir. Bu erdan ba’zi bug‘doy navlari bilan suli, lyupin, seradela, yo‘ng‘ichka qand va oziqabop lavlagi, karim, raps kabilar kelib chiqqan.

Abiosson tog‘ tepasi pasttekkisligida ba’zi o‘simgiklar uchun ikkinchi markaz bo‘lib xisoblanadi, ya’ni bug‘doy va arpani ba’zi turlari, no‘xat va chechevitsani navlari. Bundan tashqari sha o‘lka Kofe daraxti vatanidir. Janubiy Sharqiy Osiyodan ko‘p qatorli arpa paydo bo‘lgan. Shu rayonni uzoq Sharqidan shaftoli, o‘rik, apelg‘sin, limon choy va soya kelib chiqqan. Xindiston esa sholi, shakarqamish banan, koko palmasi vatani xisoblanadi.

Yangi dunyoning tog‘li mintaqalaridan, Meksikadan Gvatemagacha bo‘lgan joylarda loviya turlari, oshqovoq, maxorka, g‘o‘za va kakao, makkajuxorini vatani bo‘lsa, And tog‘laridan Kolambya-CHili shimoligacha joylar kartoshka, pomidor, g‘o‘za turlarini kelib chiqqan joyidir.

Tog‘li mamlakatlarni ko‘p toifali tuproqlarni, xarorati, yog‘inlar miqdori omillarni ta’sir qiluvchi ta’sirlarini kuchaytirgan. Xozirgi kunda tushunib olindiki, necha ko‘p o‘simgiklarni madaniy turlari dengiz satxidan 500-2500 m balandlikda o‘sib unganligi. Ana shu oylarda extimol birinchi dexqonchilik ishlari rivoj topgandir, keyinroq quyi qismlarga ko‘chgan. Bunday erlar dayorlarni bo‘yi, sungra vodiylarga tarqalgan, bu joylarda sun’iy sug‘orish paydo bo‘lib yoxud botqoqni quritish orqali Nil, Yevfrat, Inda daryolari bo‘yida sekin-asta dehqonchilik avj olgan.

Ikkilamchi madaniy usimliklarni kelib chikishi deb atalganda yovvoyi o‘simgik bo‘lib xisoblangan, keyinrok madaniy bo‘lib ketganlar. Bularga javdar va suli kiradi, avvalroq ular bug‘doy va arpa uchun begona o‘t xisoblangan. Kichik Osiyoda javdar xozir ham bug‘doyzor uchun begona o‘t xisoblanadi. Shuningdek, vika, chechevitsa, zig‘ir, no‘xat ham birlamchi bor begona o‘t xisoblangan. Boshqa ekinlar inson yashagan joy atrofida (go‘ngda, axlatxona) o‘sgan, sekin-asta insonlar ularni istemol kila boshlagan, bularga sho‘radoshlar va krestguldosh-larni vakillari kiradi. Ular tarkibida ko‘proq nitrat to‘plaganlar, masalan, lavlagi, shpinat, bryukva, gorchitsa kabilia r. tuprog‘i madaniylashgan joylarda selg‘derek, pomidor, kartoshka, nasha, ko‘knor kabilar yaxshi o‘sgan, mineral moddalarga boy bo‘lgani uchun ularni istehmoli orta borgan.

Arpa va bug‘doydan tashqari eng qadimgi ekinlarga zig‘ir va no‘xat kiradi. Ular Misrda eramizdan 4000 yil oldin malum bo‘lgan. javdar va suli i 3000 yil avvalroq keng istemol qilingan.

Ekologik muxitga talabchanligi xar bir turdaigi ekin uchun o'sha turni kelib chiqish konstituttsiyasi don, shuningdek, yangi arealda ham avvalgi talablar darajasidan ortiqcha bo'lman xolda talabi kondirilganda o'sa olishi aniqlangan.

Ko'pgina madaniy o'simliklar litoral tipdgai biotoplar joyidan kelib chiqqan. Ba'zan "madaniy landshaftlar dalasi" iborasi biologik nuqtai nazardan asoslanga emas. (Tishler V. 1955y). Masalan yovvoyi karam (Brassicocleroeca) va Reta maritmoe (qand lavlagi va xashaki boshlang'ich formasi) urta asr dengizi va Atlantik okean qirg'oqlarida o'sadi. Raps ekini (Paris V. Camestrisxb aleracca).

Moyli superitsa (V.CHara), ularni chatishirishdan hosil bo'lgan bo'lib va trenepislar V. Camrestris-dan paydo bo'lgan. Ular o'rta er dengizidan Sibirgacha bo'lgan joylarda uchraydi. V.Camrestris esa nitrofil o'simlilar dunyosiga ham kirib. Uni komponentlari avval dengiz bo'yi soxillarida daryo, ko'l soxilarida o'sgan, xozir esa ko'proq xaydaladigan erlarda ham o'syapti. Agar biotoplarni avalgi ko'payishi ma'lum bo'lsa unda raps, bargli karam va qand lavlagi sho'rga bardoshliligi uchun sho'rtob erlarda bemalol o'stirib mo'l hosil olish imkoniyati bo'lar edi. Qizil beda g'oyat namsevar bo'lib Yevrosiyoni katta maydonlarida keng tarqalganligigiga qaramay Germaniya. Shveytsariyaga XIV-XV asrda, Frantsiyaga XIX asrda tarqagan. Madaniy suli Markaz va G'arbiy Yevropaga don ekinlari ichidagi begona o't sifatida o'sib kelgan. Bu ekin etarli namlik bo'lgan hamma tuproq-larda o'saveradi. U marganets elementini xush ko'radi, bu daryo yotqiziqlari hosil qilgan joylarda ko'p bo'lgan, birlamchi suli ham bunday joylarni afzal ko'rgan. Lekin qand lavlagi dengiz bo'yi o'simligi sifatida bu elementni yoqtiradi. Ba'zan yuqoridagi o'simliklarga makroelementlar etishmay kolsa rivojlanishi sekinlashadi, buni tushunish qiyin emas, agar yuqoridagilarga e'tibor bersak.

Fakat dengiz, daryo yoki botqokliklar atrofida nam havo bo'lmay balki tog' mintaqasida ham bunday joylar borligini ko'ramiz. Bu joylarda no'xat va dukkakliklar, tamaki va kartoshka qurg'oqchil joylarda emas, namli joyda, ya'ni gigrofil o'simliklar deb ataladigan gulga mansubdirlar. YOvvoyi kartoshka And tog'lari voxasida namga boy, salqin joyda yaxshi o'sadi uni vatani yozgi yomg'irlar, tumanli, xarorat barqaror, dengizga yaqin joyda bo'lganligi uni so'rish kuchini susayishiga va katta assimilyatsion yuzasini hosil bo'lishiga sabab bo'lgan. Bu o'simlik nordon tuproqlarda yaxshi o'sadi, chunki kelib chiqqan joydagи tuproq nordon reaktsiyali bo'lgan uni keyingi talabchanligi ortiqcha oxaklangan tuproqda hosilni kamaytrishga olib keladi. Kartoshka qurg'oqchil mintaqaga ko'chishi bilan barobar tashqi omilga moslashuvi ortib borgan. Ayrim manbaalarga qaraganda (V. Tishlerdan, 1971y). Madaniy yovvoyi tur Salonum V diploidli turda tabiiy poliploidlashish natijasida kelib chiqqandir. Yashash sharoitiga bedani o'sishi kartoshkaga qaaganda aksinqa ekanligini ko'ramiz. Bu ekin, ya'ni beda. Bug'doy, arpa, javdar, makkajuxori kabilarga o'xshab cho'l o'simliklariga kiradi. Ular aridli mintaqalarda

afzal ko‘radi. Ammo ularni churg‘oqchilikka chidamliligiga ko‘ra mezofitlarga ham kiradi. Shunday iqlim talablariga loviya, vika, esportset ham kirishi ma’lum. Bedani Eron-Turon vatani kontinental landshaftda joylashgan, bu erda xarorat o‘zgarib turadi. Beda ildizi kuchli o‘sadi, jadal so‘rish kuchiga ega, er ustki qismi esa uncha kata emas. Balki yuzasi kartoshka-nikidan bir necha marta kam bo‘lgani uchun suvni kuchli bug‘lanishdan saqlaydi. Beda sho‘r tuzlar bor joyda yaxshi o‘sadi uni sho‘rga bardoshliligi ba’zi dengiz bo‘yi o‘simliklariga ham berilgan, masalan, qand lavlagi ham aridli mintaqalardan kelib chiqqanligining timsoli deyish mumkin. Boshoqli donlardan arpa bedaga o‘xshab ortiqcha namgarchilikni yoqtirmaydi, uni yog‘inlar miqdori 450-500 mm bo‘lgan joylarda ham ekish mumkin. Javdar ham qurg‘oqchilikka bardoshli ekan. Bu 1 chi cho‘l o‘simligi bo‘lib, ozuqa moddalariga talabchan emas. CHo‘l o‘simliklariga bug‘doyni ham kiritish ham mumkin. Ammo u svni arpa va javdarga qarganda ko‘p ite mol qiladi. Bug‘doy chirindiga boy va leyossli tuz tuprog‘ida yaxshi o‘sadi, yoshlidiga suvni ko‘p talab qiladi va yaxshi o‘sadi, lekin pishish davrida issiq va quruq havoni yoqtiradi. Shuning uchun bu ekin issiq va subtropik mintaqalarda ko‘p ekiladi. Makkajuxori ham bu erarlarda ko‘plab maydonlarni egallagan.

Demak, bazi o‘simliklarni xayotiy yashash shakli uchun., zarur omillarni ularni klib chiqish markazidan oladigan bo‘lsak, boshqalarini fiziologik va ekologik tomonidan boshlang‘ich shakldan uzoqlashib kelganini ko‘ramiz. Umuman inson o‘simliklar dunyosini sekin asta iqlimbop o‘stirishni turli usullarini ishlab chiqib ular maxsuldarligini keskin o‘zgartirishga muvofiq bo‘ldi.

#### **4.YOVVOYI O‘SIMLIKLER ORGANIZMLARNI MADANIY EKINZORLARGA O‘TISHI**

Yuqorida talqin qilganimizdek foydali o‘simliklar dunyoni bir mintaqasidan boshqasiga, kelib chiqish markazlaridan boshqa uzoq joylarga tarqaladi va oqibatda er yuzi quruqlik kismida ko‘payib o‘simlik florasi yashash diopozoni g‘oyat kengayadi. Birinchi bor yovvoyi o‘simliklar bilan ovqatlangan organizmlar xozirda nima bilan oziqlanadilar?

Quyida biz ba’zi bir ekin maydonlarida tarqalgan organizmlar xaqida qisqacha to‘xtalib o‘tamiz:

Don ekinari organizmlar. Avvalo Janubiy Amerika va Meksikada yovvoyi holda o‘sgan boshoqlilarda klop-shitnik (*Blisius Carterus*) XIX shimoliy amerikaga o‘tgan, uni birinchi avlodni bug‘doyni, ikkinchisi makajuxorini zararlab, ovqat-lanadi, shuningdek, sulini, sholi va shakar qamishni zaralaydi. Agar uni urg‘ochisi 60 ta o‘rtacha tuxum qo‘yishini inobatga olsak zarari juda kattadir. Markaziy Yevropada tarqalgan kanalar bug‘doya o‘tishi uchun. 2 yil yashashi, ya’ni 1 yili uzun kunda tuxum qo‘yar ekan, kiska kundaesa 2 yili tuxumlaydi, agar almashlab

ekilsa u ko‘payolmas ekan. Bu erda ular ular 24 ta tuxum qo‘ya olar ekan, bu esa ko‘payib ketishga kamlik qilar ekan. Demak, madaniy o‘simpliklarga o‘tish oson kechmas ekan, buning uchun faqat ozuqa emas, balki boshqa omillar ham kerakligini ko‘rsatib turibdi.

Ba’zan iqlim kompleksi madaniy o‘simpliklarga o‘tish uchun sharoit yaratadi. Kartoshka dalasiga ko‘chish, ya’ni hayvonlardan ikkitasi doimo shu ekinni zararlab kelgan, u qaerga ekilmaslik o‘sha erga birga borgan bu fitoftoroz (rhgberhusrra immestris) va nematoda (Helronera) YOvvoy kartoshka AHD tog‘larida nematodaga moslashganligidan undan zarar ko‘rmasdi. U nematoda 10-15°S juda yaxshi moslshaib olgan ko‘rinadi. Boshqa tekinxo‘rlar kartoshkani keyinrok zararlagan, Masalan rak kasallik ko‘zg‘atuvchi (sunchgturial) yovvoyi pomidorda yashagan. Xozirgi seleksion ishlar natijasida bu zamburug‘ga chidamli navlar yaratildi. Hashoratlidan bu ekin uchun koloroda ko‘ng‘izi ancha zarar keltiradi, bu turni (Lertehosozsa) ko‘pchiligi Meksikada yashaydi Meksikadan 1520 yillardan keyin koloroda, Nebraska kabi shtatlarga tamatdoshlar bilan kelgan. Bu erlarda qo‘ng‘iz qulay sharoit kelguncha tuproqni nam joyida jon saqlagan, lekin u kiska muddatli suv bosimiga ham chiday olmaydi. Kartoshka Sharqdan g‘arbga tomon (AQSh ga) kirib borganda (1874) qo‘ng‘iz atlantika soxillariga bordi. I jaxon urushi vaqtida Yevropaga kirib keldi, xozirda katta maydonlarini egallab, O‘rta Osiyoga 1990 yillardan kirib keldi. Inson faoliyati ta’sirida madaniy ekinlar namgarchilik rayonlaridan qurg‘okchil rayonlarga kelishi ko‘ng‘izlar uchun ozuqa manbai bo‘lib qoldi. 1990 yillarda Yevropadan (Polshadan) keltirilgan kartoshka urug‘ligi bilan O‘zbekistoniga ham, Koloroda qo‘ng‘izi kirib keldi va xozirda katta zarar keltirmoqda.

Lavlagi ekinzorlarga katta zara keltiruvchilardan barg bujmoqlanishi, lavlagi kanasi, virus kasalligi qo‘zg‘atadi, u lavlagi ekiladigan hamma joylarda uchraydi. Bular shuradoshlar oilasini ko‘pchiligida yaxshi yashaydi. Ular avval koloroda ekinlarini madaniy ekin bilan almashtirdi. Amerika tsikadasi virus tashuvchi xisoblanadi, u AKShning sho‘rlangan cho‘llaridan o‘tgan: lavlagi uzunbu-runni sho‘ra o‘simpliklaridan astalik bilan Osiyoning sho‘r bosgan cho‘llaridan nitrofin o‘simpliklarga o‘tgan keyinroq lavlagi zararkurandasiga aylandi, Ukraina, Germaniyagacha etib keldi. Eng ko‘p zarar keltirayotgan hamda keng tarqalgan issiqsevar hashoratlardan biri lavlagi parvonasidir. Parvonani yovvoyi populyatsiyasi oligafagligiga qoladi, ya’ni yovvoyi qizilchani zaralaydi, inson yaratgan madaniy navlarni madaniy populyatsiya monograflar zaralaydi.

Yuqorida bayon etilganlarga asoslanib ba’zi xulosalarni qilish mumkin: avvalo, fitograflarni yovvoyi o‘simplikdan madaniyga o‘tishi oziqlanish manbai va iqlimga ko‘proq bog‘liq ekan. Katta maydonlarda madaniylashgan ekinlarni ekilishi, qolaversa bu ekinlar o‘sha erda o‘sib kelgan yovvoyiga yaqin turga kirsa o‘simplikxo‘r jonivorlar uchun juda ham qulay sharoit yaratildi. Natijada etarlicha ozuqa moddasi mavjudligini yuzaga keltirdik, ularni populyatsiyasi

hamda avlod berishi kuchaydi. Natijada XIX asrda hamda XX asrda davomida kartoshka, makkajuxori, raps, qand lavlagi g'o'za, bog'lar ularni yashash makoniga aylanib qoldi (ilgari ular faqat yovvoyi turlarda yashar edilar). hashorat agarda maxsus oziqlanish va rivojlanish tsikliga moslashgan bo'ldi, mayda mobodo bitta vegetatsion davrda ontogenetini tugatmas ular bir yillik ekinlarga zarar keltirmaydi. Qishloq xo'jalik ekiinzorlarida yashayotgan zashorat zararkuranda polifag xisoblanadi.

Iqlimiga ko'ra xasharotlarni madaniy ekinzorga o'tishi yana shundan ko'rindiki, optimalg' sharoitda masalan, Janubi-sharkiy Yevropada boshqa joylarga o'raganda ko'prok zararlanadi.

O'rta Yevropada esa yovvoyi o'simliklarni ko'proq zararlaydi, "issik joylarda bunday madaniy o'tib ketadi. Lekin tabiatda madaniy ekinlar bilan barovor evvoysi ekinzorlarga ega bo'lган joylarda xashrotlarni madaniylarini zarar-lashi kamroq bulishini kuzatish mumkin, qolaversa tabiiy pichanzor qurib kolganda ular yoppasiga ekinzorlarga o'tib ketishi kuzatiladi.

Demak, oziqlanish uchun hashoratlarga manba bo'limganda ko'prok ekinzorlar zarar ko'rар ekan.

#### TAYANCH IBORALAR

Atmosfera, litosfera, biosfera, atrof muxit, biotsennoz, madaniy landshaft, madaniy o'simliklar, ekologik omillar, mezofil o'rmonlar, madaniy landshaft dalasi, diploid, nematoidlar.

Nazorat savollari:

1. Agroekologiya fani predmeti va vazifalari, boshqa fanlar bilan aloqasi. Qishloq xo'jiliги dalalarida tirik organizmlarning paydo bo'lishi.
2. Madaniy landshaftlarning paydo bo'lishi, boshqa fanlar bilan rivojlanish tarixi?
3. Madaniy o'simliklarning kelib chiqishi?
4. Begona o'tlarning paydo bo'lishi?
5. Uy hayvonlarining kelib chiqishi, yovvoyi o'simlikdan madaniyatga o'tishi?
6. Agroekologik dalalarda sodir bo'ladigan tabiiyotga nisbatan nimalari bilan farq qiladi?
7. Madaniy o'simliklarning brinchi kelib chiqish markazlari. (N. Vavilov bo'yicha)?
8. Nima uchun o'simlarni ikkinchi vatani deb taladi?
9. Hayvonlarni yovvoyilikdan madaniylashuvi jarayonlariga to'xtaling?
10. Agrotsenoz va biotsenoz tushunchalariga ixox bering?

Adabiyotlar:

1. Tishler V. "Selskoxozyastvennaya ekologiya", M.1971
2. V.Burqchin, M.Martsinkovskaya. «Selskoe xozyaystvo i ekologiya» Tashkent. «Mexnat». 1991g.

## **Agrotsennoz, uning komponentlari, mahsuldorligi, antropogen omillar, agrobiot-sennoz barqarorligi**

R Ye J A:

1. Agrobiotsennoz tushunchasi, ishtirok etuvchi mavjudotlar, koiponentlariga tavsif.
2. Agrotsenoz mahsuldorligiga antropogen omillar ta'siri.Ozuqalarga talab, tuzlarga bardoshlik, o'zaro modda almashinuvi.
3. Muhit ekologiyasini agrotsennozlarga ta'siri, madaniy ekinlar dalasini shakllanishi.
4. Landshaftlar, organizmlar tarqalishiga ta'siri

### **1. AGROBIOTSYE NOZ XAQIDA TUSHUNCHA**

Agrobiotsennoz suvi tabiiy muxitda yashab turgan biologik jonzotlarni birligida, o'zaro yashab turish sharoitini anglatib, bug' jarayonga tashqaridan biron bir usulda aralashuv maqsadga muvofiq emas degan ma'noni bildiradi. Paxta dalasi misolida agrobiotsennozni tashkil etuvchi, xasharotlar, foydali jonivorlar, tuproqdag'i turli sodda hayvonlar va mikroorganizmlar bilan o'zaro bog'liq xolda yashaydi, deb uqtiradi. Shuni xisobga olgan holda kasallik va zasharotlarga qarshi kurrashda har tomonlama ekologik yondashuvga amal qilishimizni talab qiladi.

Ular yovvoyi tabiatda yashashga o'rgangan edilar (fitofaglar va ularni tabiiy kushandalari), bu esa ba'zi turlarni o'ta rivojlanishiga olib keldi. Masalan, g'o'za, kuzgi to'plamlar, o'rgamchikkana, shiralar va boshqa fitofaglar. Ular uchun g'o'zada yaxshi ozuqa manbai bor, oxirida bular hashorat sifatida xujum qiladilar.

Dominat fitofaglar populyasi bilan keyinchalik paxtazorda zoofaglar paydo bo'ladi, ular hashoratlar va so'rvuchilar (kleshi) bilan ovqatlanishadi, chunki ekilgan ekinni avvalgilari xush ko'rib eyishadi, shuningdek ekin dalasida paydo bo'lган uchinchi tropik darajadagi yirtqichsimonlar va tekinxo'rлarni ham nobud qila boshlaydi, oxirgilar esa ikkinchi tropik darajadagi zoofaglar bilan ovqatlanadi. Masalan, sirfid peshshasi, qurti va gumbogi bilan (ular g'o'zadagi shiralar bilan ovqatlanadi) tekinxo'rlik ixnevmonidalarga mansubdir.

G'o'za ekini ko'p yillik ekilishi natijasida O'zbekiston va qo'shni paxtakor davlatlarda o'ziga xos agrotsennoz yoxud paxta ekosistemasi bo'ladi, ular ovqatlanish ob'ektlari bilan o'zaro bog'lanib ketadi. Bu sharoit inson tomo-nidan va boshqarib turiladi. Bunga sabab inson talabga binoan u yoki bu tarzda ish olib bordi. Demak, insonlar, yuqori xosil olish ýchun ma'lum bir ekin turini ko'proq ekaverganligidan ham ekinlar ýchun, ham o'sha erda yashayotgan jonzotlar uchun yaxshi sharoit yaratib berdi. Ammo, bora-bora ekilgan o'simliklar guruhi ichida kasallik yoki xasharotlar o'ta ustin kelib, katta zarar keltira boshlaydi, ularga qarshi kurash choralarini izlaydilar, topib uni ishlaydilar. Xatto kimyoviy kurash usullarni ham ishlab chiqadilar.

Bunga sabab inson iqtisodiy talabga binoan u yoki bu tarzda ish olib bordi. Demak, insonlar, yuqori hosil olishi uchun ma'lum bir ekin turini ko'proq ekaverganligidan ham ekinlar uchun, ham o'sha erda yashayotgan jonzotlar uchun yaxshi sharoit yaratib berdi ammo, bora-bora ekilgan o'simliklar guruhi ichida kasallik yoki hashoratlar o'ta ustun kelib, katta zarar keltira boshlaydi, ularga qarshi kurash choralarini izlaydilar, topib uni ishlaydilar. Xato kimyoviy kurash usullarini ham ishlab chiqadilar.

Xozirga kelib ba'zi joylarda ko'p yillardan beri tartibsiz, mexanik, yoppasiga kimyoviy dorilarni sepilishi jonzotlar o'rtasidagi mutanosiblikni buzzdi, zararli jonzotlar soni ortdi, ular orasida doriga bardoshli turlari paydo bo'ldi, natijada inson uylaganidek natijalar kelib chiqmadi. Tabiat ustidan g'alaba qilamiz deb turli vositalar bilan kurash choralarini qo'llab turish bizga doimo yaxshilik keltirmas ekanini, bu g'alaba uchun tabiat bir kuni o'ch olishini esdan chiqarmaslik kerak.

O'simliklar kasalligi va xasharotlarni yo'q qilish ttxenik yoki kimyoviy muammo bo'lmay, ekologik, biotsenologik masaladir. shuni nazarda tutib olimlar agrobiotsennozlarni bir butun tizim deb qarab, tabiiy populyatsiya entomograf-larni saqlab qolish kerakligini ishlab chiqdilar, agroekosistemaga komponent tariqasida kimyoviy kurash chorasi ham kiritishadi. Bu xaqida proffessor G. Ya. Bey-Bienko (1954) ilmiy e'tiborni avvalo lenta simon (differtsirovanli) usulida deleni ishlashani taklif etdi, chunki etomofaglar ishlanayotgan dalani ishlamayotgan joyga qtib olsa sepilayotgan pestitsidlardan kamroq zaxarlanadi.

1957 yilda V.A.Shepetinikova foydali va zararli xasharo va kasalliklar o'rtasidagi agrobiotsennozdagi nisbati inobatga olinganda, shunga ko'ra agrotex-nikaviy va kimyoviy kurash choralarini qo'llashni taklif etdi, uningcha, xasharot-lar tushgan joylarni o'zini ayrim kimyoviy ishlash lozim. Keyinchalik T.K.Gri-gor'eva (1962) qishloq xo'alingida floristik rang baranglik kiritilishini taklif etdi, bunda tekinxo'r va kemiruvchilar ahamiyati ortib agrobiontsennozni ekologik barqarorligi xosil qilinadi deb uqtirdi. bunda almashlab ekinlarni ekish, nektar to'plovchi o'simliklar va bardoshli navlar tanlash kabi agortexnik tadbirlar agroyuiontsennozni boshqaruvchi asosi bo'lib qolish lozimdir.

Ekologik nuqtai nazardan xasharotlar bilan kurashishda regluyatsiya mexanizmi asosiy bo'lib bunda foydali (egasi) va tekinxo'r (yo'q qiluvchi) o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik muhim ahamiyatga ega, chunki fitofaglar-entomofaglar aloqasi uzviy bo'lishi darkor.

Manbalardan xulosa qilinsa, paxta agrobiotsennozida ko'p zarar keltiruvchi tabiiy xasharotlar fitofaglar o'simlikka erta baxordan o'rashib oladi, ular o'zlariga em bo'luvchi boshqa popudyatsiya larni ko'payishida muhim rol o'yonaydi. Demak, paxta dalasi agrobiotsennozi murakkab aloqalar o'rtasida hosil bo'lar ekan.

Paxta dalasi agrobiotseozi quiydagilarni o'z ichiga oladi:

1.Paxta dalasi agrobiotsenozi shakllanishi va unda qatnashuvchi jonzotlar axvoli qanday bo‘ladi? Ma’lumki g‘o‘za o‘z kelib chiqishi arealida ko‘p yillik yovvoyi holatdan butasimon o‘simplikdir. Uni o‘ziga yarasha faunasi bor. Yaxontov V.V. (1961) fikricha g‘o‘zada 1100 turdagи umurtqasizlar yashaydi, ularni ichida ba’zilari aloxida g‘o‘zani hamda boshqa ekinlarni iste’mol qiladi.

Bizni sharoitimidza bir yillik ekin bo‘lgani uchun o‘ziga xos fauna elib chiqqan. Ilgari, XX asr boshigacha diploid turdagи gossipium xarbatsium turi (xromosoma soni 2p=26) ekilgan u asosan Pokistonda, Afrikada ekilgan, demak qadimgi o‘rtalarda dengizi atrofida yashagan. O‘rtalarda Osiyoda g‘o‘za 2500 yil oldin ekilgan, hozirda 2p=52 yoki tetraploid ekilib kelinmoqda. Demak shu yillar ichida Markaziy Osiyoda ekib kelingan g‘o‘za turlari xashaki ekinlarda uchraydigan hashorat, shira va boshqa umurtqasizlar bilan faunastik kompleks xosil qilgan.

Ilgari g‘o‘za shirasi ildiz shirasi – **Smynthurades betal** turi uchragan u pista o‘simpligi egasi bo‘lgan, xozirda ular ko‘plab o‘t o‘simpliklarini zararlaydi. Bundaylardan beda shirasi ham uchrab ular aprel oxiridan-iyun oyi boshlarigacha g‘o‘zada yashab, zarar keltiradi. Xuddi shunga o‘xshagan ko‘plab yoki dukkakaliklarni ham zararlaydigan oligafag bo‘lib yoz bo‘yi g‘o‘zada yashab, qish davrida yantoqda yashaydi. G‘o‘zani zararlaydigan guruhlardan g‘o‘za sovkasi ko‘plab ekinlarni zararlaydi. Kuzgi to‘plam eng ko‘p shikastlovchi parazitdir. Shuningdek, keredrina, urgimchakkana, tamaki tripsi, tsikadolar, chigirkalar, boshqa so‘rvuchi kanalar, sim qurti, nemotodalar ko‘plab uchraydi, hosilni keskin kamaytira-dilar. G‘o‘zani hamma zararli faunasi fitofaglar bo‘lib, umurtqasizlar g‘o‘za uchun maxsus bo‘lmagan guruhlarga kiradi, ularni mintaqaviy faunaga, oligafagga kiradi.

2. Agrobiotsenozi komponentini yana biri entomofaglar bo‘lib, g‘o‘za o‘simpligini o‘zi, ma’lum maydonlardagi hamma jonzotlarni o‘z ichichga oladi. G‘o‘zada 300 turdan iborat bo‘g‘imoyoqlilar va boshqa umurtqasizlar jonzotlar uchraydi. Ularni 75 foizi yirtqich, tpekinxo‘r hashorat va mikroorganizmlarni tashkil etadi. (ularni bari entomomaglarga kiritilsa bo‘ladi).

Agrobiotsenozi bosh komponentlaridan biri yana akarifaglar, tekinxo‘r bir xujayralilar yoki mikropoten organizmlardan iboratdir.

G‘o‘zani hashoratlari haqida, ayniqsa entoma-akarifaglar bo‘yicha asrimiz-ning boshida N.P.Simonov (1909) ish olib borib brokonadga brobrokon g‘o‘za to‘plamida parazitilik qilishini yozgan edi. Xozirgi vaqtida ko‘plab foydali deb atalayotgan jonzotlar g‘o‘za dalasidagi fitofaglar yo‘q qilishda muxim rol o‘ynab kelmoqda, ularni laboratoriya sharoitida ko‘paytirib dalaga qo‘yilmoqda. Demak, agrobiotsenozi tizimiga insonlar ham faol ta’sir ko‘rsatm QLD, chunki ortiqcha mayordagi kimyoviy dorilar ekologik holatga salbiy ta’sir ko‘rsatishi xech kimga sir bo‘lmay qoldi.

## 2. AGROTSYENOZ MAHSULDORLIGIGA OG‘IR MYETALLAR BILAN

## IFLOSLANGAN MUXITNING TA'SIRI.

Radiologik tekshiruvlar natijasida katta kimyoviy zavodlar atrofida 50 km masofagacha ba'zi og'ir metallar bilan tuproq, havo, o'simliklar kompaniyasini ifloslanishi kuzatilyapti. Uni oldini olish uchun esa mintaqaviy va xar erni xususiyatlariga qrarab ayrim tavsifnomalarni bayon etishni lozim deb topdik. Xar erda mintaqaviy xususiyatni inobatga olgan holda qishloq xo'jaligida ishlayotgan erlarni ifloslanish darajasiga ko'ra turli agrotsenoz xosildorligini oshirish hamda tuproq unumdorligini oshirish choralarini ko'ri-ladi. Agarda zavodlardan gazsimon (aerozol holatda ham) holda chiqayotgan og'ir metallarni kamaytiradigan ekin ekish, yoxud o'sha erlar uchun maxsus almashlab ekishni joriy qilib, erdan samarali foydalanishni tashkil etish lozim. Shuningdek agrotexnik va agrokimyoviy choralarini shunday texnologiyasini qo'llash kerakki, bunda tuproqni zaxarli moddalar ekilgan ekin uchun kamroq o'zlashishiga olib keladigan sharoit yaratilishi lozim bo'lib qoladi. Xo'sh, bunday zaxiralangan joylarda nimalar qilish kerak.

1. Aerozol gazlar bilan ifloslangan sharoitda agrotsenoz xosildorgini saqlab qolish mumkinmi? Avvalo zaxarli taksikantlarni xarakatlari va jadalligi o'simliklar va tuproqni qaysi turdag'i taksikonat bilan, ularni miqdoriy darajasi o'simlik turiga, ifloslanish manbasidan qancha masofada ekanligiga bog'liqdir. Agrotsenoz xosildorgini saqlash uchun erga yaqin joyda atmosferadagi oltingugurt gazi hamda azot oksidi  $m^3$  joyda 0,4-1,0 mg-dan ortmasligi kerak, bunda kaly elementi butun vegetatsiya davrida  $10 \text{ mg.m}^{-2}$  dan oshmasligi kerak, ko'mir changi esa  $1m^3$  havoda 0,02 mg bo'lishi lozim.

Shunday qilish kerakki, sabzavot ekinlari chorva uchun ekilgan o't-o'lanlar, pichanzorlar iflos gazlar tushayotgan yoo'lda ekimasligi, ekilganda esa shamol esadigan qilib joylashtirish kerak (daraxtzorlar to'sib qolmasligi lozim). Ifloslanish darajasi o'ta zaxarli bo'lgan joylarda ildiz mevali, texnika ekinlari, boshoqli ekinlar ekilgani ma'quldir. Agarda gazaerozol tushumi ko'plab tushadigan bo'lsa, juda chidamli ekinlar ekish tavsiya etiladi, ular bunday erlar ýchun moslashgan bo'ladi. Masalan, quyidagi jadvaldan ko'rinish turibdiki, bazi ekinlar og'ir metallarga bardoshli bo'ladi.

*Xo'l massasida, mg/kg*

O'SIMLIKLER NOMI	MIS	QO'RG'OSHI N	RUX	KADMIY
LAVLAGI	10,9 - 3,0	0,3 - 2,2	6,0 - 31,0	—
POMIDOR	10,5 - 1,1	0,07 - 0,1	1,0 - 10,0	—
SABZI	10,5 - 1,3	0,1 - 1,6	3,0 - 8,0	0,05 - 0,5
QALAMPIR	10,8 - 1,2	0,05 - 0,12	2,0 - 4,0	—

KARTOShKA	—	0,27	—	0,04 - 0,12
Tuproqni ishslash madaniy ekinlarni zamburug‘ kasalligi bilan ozishini kamaytiradi. Umuman, ba’zi kasalliklar tuproq og‘darilganda namlik etishmay nobud bo‘lishadi. Tuproqni ishslash lichinkalarga qarshi asosiy kurash manbai bo‘ladi lekin ular xaydov qatlama qavatida bo‘lib turgan vaqtda bajarilishi lozim, chunki pastki qatlama tushib ketishadi. Agar bahorda tuproq xaydalsa, ular er ustiga yaqin joyga chiqqanda o‘tkazilgani ma’qul, bu usulda

lichinkalarni 80-90% yo‘q qilinadi. Mabodo shudgor qilingan erda o‘t-o‘lanlar o‘ssa lichinkalar ovqat bo‘lganidan yana ko‘payishadi.

Tuproq ishlaganda uni ustida yashovchi jonzotlarni ham o‘z ta’sirini ko‘rsatadi, buni kuzgi ekin ekilgan joy bilan bahorda xaydalgan erlarni bir-biriga taqqoslaganda ko‘rish mumkin. (140-rasm). Bahorda xaydalgan erda ayniqsa, o‘rgimchaklar, ba’zi bir jujalitsalar nobud bo‘lishadi.

## **2. O‘G‘ITLARNI TUPROQDA YaShOVCHI JONZOTLARGA TA’SIRI**

O‘g‘itlar nafaqat o‘simpliklar uchun foydali xisoblanmay, balki tuproqda yashovchi ko‘plab jonivorlar uchun bevosita yoki bilvosita ta’sir ko‘rsatadi (141-rasm). Go‘ng va boshqa mineral o‘g‘itlar bilan boyitilgan tuproqda bakteriyalar, zamburug‘, saprofitlar, neitod, enxitrid, chuvalchang, bug‘imoyoqlar soniga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, chunki bu joylarda o‘simpliklarni xosildorligi ortib qoldiq maxsulot tuproqda ko‘payadi, chirindini ortishiga olib keladi.

Ko‘pchilik dala tajribalari ko‘rsatishicha, tuproqda kaltsiy etishmasa eubakteriya va aktinomitsentlar keskin kamaygan, shu dalani o‘zida esa zamburug‘lar eng ko‘p, mikrofauna – nematodlar, dumoyoqlilar, kleshilar, o‘zgarishsiz qolgan. Mikroflora undan uglerod miqdori, uni zaxirasi asosiy o‘rinni egallaydi. Ma‘lumki organik moddalar avvalo mikroflora tomonidan egallanadi. Tuproq hayvonlari tsellyuloza, pktinoza, kallanoza va xitinoza bo‘lmaydi, shuning uchun o‘simpliklar xujayrasidagi polisaxaridlar avvalo mikroqlora tomonidan amalga oshadi.

Tuproqdagi hayvonchalarni ahamiyati shundaki, ular organik massani maydalashadi, ichkaridan o‘tadi, bakteriyalar tomonidan parchalanadi.

Tuproq hayvonlari ozuqadan juda kam miqdorda xazm uchun manba oladi, ya’ni ishlatish koeffitsenti past, shuning uchun ko‘p iste’mol qilishi kerak. Ana shu qobiliyat tufayli o‘simpliklarni qoldiqlari tuproqda tez chiriydi, solingan go‘ng, yashil o‘g‘it, somon kabilarni parchalanishi natijasida moddalar almashinuvi tezlashadi, chirindi xosil bo‘lishi uchun sharoit yaratiladi.

Organik o‘g‘itlar faunasi tuproqdagidan boshqacharoq bo‘ladi. Kompostdagi esa ikkalasi o‘rtasidan joy olgan. Achish jarayoni go‘ngda asta-sekin markazga boradi, bu jarayonda mikrofloradan tashqari dumoyoqlilar, pashsha lichinkasi va xalqali yomg‘ir chuvalchanglari qatnashadi. Go‘ng to‘plami ortiqcha xajmda katta bo‘lmasligi kerak, chunki ichiki qavat tez chirib, ko‘p moddalar uchib ketadi.

CHiriyotgan go‘ngda hayvonlar qishda uni ichkarisiga kirib boradi. CHunki ularda issiqlik ko‘proq bo‘ladi.

Tuproqqa go‘ng solinganda uni chirishi tirik mikroorganizmlar va hayvonlar tomonidan davom etadi. Go‘ng atrofidagi tuproqda mikroorganizmlar (tuproqniki) deyarli bo‘lmaydi, ayniqsa, yangi go‘ng solinganda bu xol ro‘y berishi sezilib turadi, bir oz vaqt o‘tgach tuproq

hayvonlari faolligi boshlanadi. Misol uchun bitta tajriba natijasini olsak 10 gramm quruq modda to‘g‘ri keladigan hayvonlar sonini keltirsak, ildiz qoldig‘ida 5 ta dumoyoqli bo‘lgan xolos. U ekin o‘rib olingan angiz qoldiqlarini chiriganda 39 dona dumoyoqli, 22 ta kleshi, yaxshi chiriganqoldiqda 121 dumoyoqli, 42 kleshi, yaxshi chirigan go‘ngda 100 ta dumoyoqli, 1070 dona kleshilar borligini ko‘rsatdi.

Okova suv fosfor o‘g‘iti bilan (kaliy ham kerak) boyitilganda qumoq, oriq erlarda ko‘p samara beradi. Bunday suv miqdori 500-800 mm hajmda qo‘yilgani maqbul xisoblanadi, bundja tuproq fosfor bilan boyitiladi, tuproq yaxshilanadi.

Bunday dalalarda boshoqli yovvoyi o‘simliklar ko‘payadi, chorva uchun to‘yimli ozuqa bazasi vujudga keladi. Lekin okova suvlardan noto‘g‘ri foydalanilsa ba’zi hayvonlar kamayib ketadi.

Agar azot xaqida gapisak, uni ko‘p miqdori ham, kamgil bo‘lishi ham o‘simlikka va tuproq jonzotlariga ta’sir ko‘rsatadi, hosil oshishi yoki kamayishi mumkin.

To‘g‘ri ishlatilgan o‘g‘itlar parazit zamburug‘larni kamaytiradi, hashoratga bardoshli qiladi. Azotni etishmasligi o‘simlikni o‘sishini kechiktiradi lekin ba’zan ildizi meyorida o‘sishi mumkin, barglari maydalashadi, och-yashil bo‘lib qoladi, mevalar kichiklashadi, urug‘lar soni va sifati keskin yomonlashadi. Lekin ko‘p solingan azot vegetativ o‘sishni ko‘paytiradi, xosilni etishi kechikadi.

Olingen xosil ko‘paysada, azot ortiqchaligidan mevalar uzoq saqlanmaydi, ular chirishga moyil, zang va unshudring kasaliga bardoshsiz, kana, shira, va shitovka bilan og‘rishi ko‘payadi. O‘simlik virus kasali bilan og‘rishi osonlashadi. Masalan, kartoshkani burg bujmaloqlanish kasali, g‘o‘zada vilt va boshqa patologik o‘zgarishlar kelib chiqadi.

Fosfor etishmasa ekinlarda maxsuldarlik kamayadi, kasalliklarga chidamsiz bo‘ladi. Barglar qora, yashil rangga kiradi, keyinroq quriydi. Azot va fosfor kabi oltingugurt ham zarur modda xisoblanadi, protoplazma faoliyatida ishtirok etadi. O‘simlik lar azotni  $\text{NH}_2$  va NO shaklida o‘zlashtiradi. Ammo organik shaklida tsianotsidlarni aminokislotalarni qabul qilishi mumkin, fosforda esa ortofosfat xoda, oltingugurt sulfat ichida qabul qiladi.

O‘simliklar uchun zaruriy moddalardan kationlardan kaliy, magniy, kaltsiy elementlari bo‘lib ular etishmasa turli kasalliklar namoyon bo‘ladi. Masalan, kaliy etishmasa barglar ranggi o‘zgaradi, chet tomondan barg quriydi. O‘simlik pakana bo‘lib qoladi. Ildiz va tuganaklar chiriy boshlaydi, kasalliklar paydo bo‘ladi.

O‘simlik xayotida kaltsiy va kaliy, kaltsiy biln magniy o‘rtasidan antagonizm jarayonini muxim ahamiyatiga ega. Agar tuproqda oxak etishmasa, tuproq strukturasi buziladi, ildiz o‘sishi qiyinlashadi, meva daraxtlarida gulmoz ya’ni shoxlarini qurib qolishi ko‘payadi, zamburug‘ kasali ko‘payadi.

Mikroelement deb nomlangan moddalarni erimaydigan shaklga olib keladi, natijada o'simliklar ulardan foydalana olmaydilar. Mikroelementlar ham o'simlik xayoti uchun zaruriy moddalar xisoblanadi, ular o'simlik va hayvonlar tanasi uchun 03 miqdorda zarur bo'ladi, etishmasa modda almashinuvi buziladi. Mikroelementlar etishmaganda ferment tizimi buziladi, o'simliklarda ular 30-33 tasi borligi aniqlandi. Ayniqsa, marganets, mis, temir, rux, kobolt, ftor, yod, bor, molibden zaruriy xisoblanadi. Masalan, bor etishmasa lavlagi chirish kasalligi, karam, beda, raps, olma, nokda aniq ko'rindi. Marganets etishmasa xeyroz kasali ko'payadi. Mis etishmasa donlar puch bo'lib qoladi. Bu elementlarga bo'lgan talab gektariga 30-40 tonna go'ng solishsa to'la qondiriladi.

### **3. YERDAN FOYDALANISH ALMAShLAB EKIShNI TA'SIRI.**

Yerdan faqat inson manfaati yo'lida foydalanishni o'ylasak unda o'suvchi o'simliklarda va tuproqni o'zida xayot kechiruvchilarni xayot tsikli butunlay izdan chiqib, tuproq unumdoorligini yo'q qilib yuborish mumkin. Masalan, yuqori xosil olish uchun erga xadeb makkajuxori ekib, unga ko'p miqdorda azot o'g'itini solish bir kun undagi foydali mikroorganizmlar va chuvalchanglarni qirilib ketishiga olib keladi. Bunga yana misol qilib, ketma-ket bir xilda bitta ekinni maydonda ekaverish kasallik yoki hashoratlarni ko'payib ketishiga olib keladi. Agarda biror joyda 5-6 yil beda ushlab turilsa ildizi zaxarli modda ajratib chiqaradi, natijada bedadan so'ng ekilgan urug'liklarni unib chiqishi keskin kamayadi.

Ekinlarni ekishdan maqsad xosil olishni o'zi bo'lmay biologik jixatdan o'zaro mutanosiblikni saqlab turish hamda iqtisodiy jixatdan samarasi yuqori bo'lgan ekin ekish ham zarur bo'lib qoladi, chunki erdan samarali foydalanish zarurligi hammaga ayon. Agar er unumdoor bo'lib biz uchun uncha ahamiyati bo'limgan qayta ishlash korxonasi yo'q bo'lgan ekinni ekish umuman foyda bermaydi. Masalan, lavlagi ekish Farg'ona vodiysida qand zavodi bo'lmasa qayta ishlamasdan uni uzoq saqlab blmaydi. Demak, ekilgan ekinga sarf bo'ladigan xarajatlar bilan undan olinadigan sof foyda o'rtasidagi tafovut sezilarli darajada bo'lishi uchun xisob-kitob asosida ish olib borish kerak ekan.

Bunda almashlab ekish tizimida mintaqqa uchun zarur bo'lgan, inson extiyoj uchun sarflanadigan maxsulotlar turini ko'proq ekish, qolaversa arzon tushadigan, qayta ishlashi mavjud bo'lgan soxalarda ekinga o'rin berilishi lozim. Intensiv o'lib ko'p hxosil beradigan navlar kolomin va xasharotlar xujumidan xalos bo'lganicha yo'q, shuning uchun ularga qarshi kurash chorralari uchun sarf bo'ladigan xarajatlar ham e'tiborimizdan chetda qolmasligi kerak. Umuman iqtisodiy ko'rsatkichlarni yaxshilash uchun inson qo'lida yangi navlar, shu gosbli urug'liklar, to'g'ri almashlab ekish, kasalik va xasharotlarga qarshi zamonaviy kurash

choalaorini bir-biriga uzviy bog‘langan holatda olib borish ko‘p va sifatli xosil olish garantiyasini xisoblanadi.

Almashlab ekishni tanasida mintaqadagi ishchi kuchi, tuproqni o‘z vaqtida ishlash uchun texnik vositalar, go‘ng miqdori, tovar maxsulotini sotish va qayta ishlash kabi masalalarga e’tibor qaratish kerak. Bu erda biz biologik muammolarni ko‘rib chiqamiz. Bir joyda ekinni qayta-qayta ekish ularni kuchsizlanib o‘sishiga va xosil miqfdori kamayib ketishiga olib keladi.

Buning sabablariga bir xil ozuqa moddalarni kamayib ketishi tuproq mikorflorasini o‘zgarishi, shu ekinni ildiz shirasi va chirishda xosil bo‘lgan moddalarni nochula sharoitni vujudga keltirishi, kasallik va hashoratni ma’lum turlarini ortiqcha ko‘payib ketishi sababchi bo‘ladi. Shuning uchun almashlab ekish joriy etiladi. Almashlab ekish tizimiga amal qilinganda kompleks masalalar ichida o‘sha joydagi organizmlarni xayotiy faoliyatini o‘zgarishi natijasida tuproq biokimyoviy jarayonlari bshqa yo‘lga kirishi bilan izoxlanadi, ammo bu jarayonlar yanada murakkab bo‘lib, ko‘p masalalar to‘la echimni topmagan.

Shulardan to‘rtasini umum tarzda ko‘rsatish mumkin:

**Ekinlarni bir-biriga mosligi.** O‘simgliklardan yo‘ng‘ichka, beda, no‘xat, fosol. Gorchitsa, zig‘ir, tamaki bitta dalani o‘zdia qayta ekilsa yaxshi o‘smaydi, bunda ular qandaydir modda ajratib chiqaradi deb tushuntiriladi. Boshqa tomondan olsak, jovdor va kartoshka qayta o‘sha joyga ekilsa xosili kamayib ketmaydi, agarda kasallik va hashoratlar tplanib qolmasa.

**CHirindi balansi.** Ekinlarni nisbatini shunday olib borish lozimki, bunda tuproq kambag‘allahib qolmasin, ya’ni m-xashak ekini bilan qator orasi ishlanadigan ekinlar o‘rin almashlab tursin. Ekin tuproqda qancha ildiz va angiz massasi qoldirilishiga e’tibor berish kerak, chunki tuproq chirindisi tabiiy holatda shularga bog‘liq. Shuningdek, tuproq unumdonlik xosollarini yaxshilashda siderat va nuklein o‘g‘it vifeltida xaydab yuoriladigan 5 yilliklar ham chirindi manbaidir. CHirindini oshrib borish xozirgi zamon almashlab ekish rejasini asosiy maqsadi bo‘lishi lozim.

**Edofonga ta’siri.** Tuproqdagi organizmlar faoliyatni yaxshi kechishi uchun dalada uzoq o‘sadigan ekinlar bo‘lishi lozim, chunki ular uchun ham ozuqa, ham yiorqligim vujudga keladi. Buning uchni ba’zan oraliq ekinlar yaxshi tavsiya etiladi, ammo bu sharoitda ba’zi kasallik va hashoratlar ko‘payib qolishi mumkin (rak, nematodlar, may qo‘ng‘izi, simqurtlar. Almashib ekish ekinlari tuproq organizmlari uchun ovqat, yashash makoni, ko‘pgina turlar uchun ko‘payishi sharoitini vujudga keltiradi. Tirik organizmlar tuproqda ovqatlanishi uchun bir xil ozuqani talab qilmasligini yuqorida aytib o‘tdik, ya’ni bir xil o‘rib olinib, boshqasi ekilsa ziga xos o‘zgaishlarga sabab bo‘ladi. Masalan, boshoqli ekinlardan, bir va ko‘p yillik dukkaklilar keyin hamda ekilmay qolgan erdag‘i bakteriya, zamburug‘, dumoyoqlilar, kanalar sonini o‘rganilganda ular nafaqat ekinzordagi xarorat va namlikka qarab o‘zgarmay ozuqa turiga qarab

o‘zgarar ekan. Masalan, dukkaklilar dalasida eubaktriya, zamburug‘lar, dumoyoqlilar, boshqlilar o‘sigan joyda kanalar va aktinomitsentlar ko‘paygan. Shu ekinlar 3 yildan keyin xaydalib bir qismiga kartoshka, boshqa qismiga so‘ligan gorchitsa ekildi. Birinchi yilda biologik muvozanat avvalgi holatda o‘zgarmay qoldi. Keyingi yilda ekinlar yana avvalgi holatda ekilganda o‘sha muvozanat saqlandi, faqat o‘g‘it ekilganda ajraladi. Qarangki xosildorlik kartoshka ekilganda 2 yil yuqori bo‘ldi, bir-bir ekilib almashganda o‘rtacha, almashlamaganda past xolsil olindi. Demak, efodon guruxi almashlab ekish tizmiga bog‘liq ekan.

Almashlab ekish davomiyligi uzoqlashishi bilan ya’ni ekinlar 4-5 yil o‘z o‘rnida qoldirish tuproq edofoniga sazilarli ta’sir qildirib, balki ekinlar tur ko‘proq ta’sir o‘tkazar ekan. Shuningdek organik o‘g‘itdan \_\_\_\_\_ ni ko‘proq solish boshqa vositalarga qaraganda jonzotlarni ko‘payishi tezlashtirar ekan. Bizni sug‘orladigan mintaqamizda beda, don dukkaklilar, boshqoli donlar, sabzavot poliz ekinlari g‘o‘za bilan almashinuvি ekin bo‘lganda yaxshi samara beradi. Makka juxori, sudon o‘ti, lavlagi kabi ekinlar don-dukkakliar bilan almashinib turishi, ko‘p miqdorda organik va mineral o‘g‘itlar ishdarish bilan uzviy bog‘langan xolda olib lrlisa tuproq tirik organizmlarni xayotchanligini yaxshilaydi.

Ekilayotgan madaniy ekinlar xadeb qayta ekilganda kasallik va hashoratlar ko‘payib ketadi. Masalan, don ekinlari ekiladigan joylarda o‘ziga xos bo‘lgan patogen zamburug‘lar ko‘payib ketadi. Bunday kasalikda g‘o‘zadiga virus zamburug‘i ham misol bo‘la oladi.

Hashoratlardan nematodilarni ko‘rsatish mumkin. Masalan, kartoshkani fitofitoroz hashorati, suli va boshqalarni dadalar bo‘yicha ekip turish ba’zi o‘simlik uchun doimiy bo‘lib qolgan parazitlik qiluvchi hashoratni keskin kamaytiradi. Almashinib ekishni vazifasi chiindi hamda so‘ng qolgan qoldiqlarni istemol qiluvchi jonzotlarni kupaytirib , kasllik keltiruvchilarni kamaytirish ham hashoratlar sonini oz darajaga izlanishdan iboratdir.

Bundan tashqari almashib ekish dalalarda gegerolangan boshqa maydonlarda shu ekinga mos tushgan tur, gurux yoki kasallik va hashoratlar o‘sha joyga ko‘chib o‘tib zararlanish ortib ketadi. Baxorda ekilgan sulizor yaqiniga suli ekmasli, kuzgi arpa yoniga baxorgi arpaekmaslik kerak. Bunday misollar ko‘plab dala ekinlarida kuzatiladi.

#### **4. Qishloq xo‘jalik ekinlari zararkunanda va kasalliklarga qarshi kimyoviy kurashning biologik oqibatlari.**

O‘simlikshunoslik va dalachilik ishlarini turli soxalarida kasallik va hashoratlarga qarshi kimyoviy kurash insonni qishloq xo‘jalik landshaftiga aralashuvi bo‘lib xisoblanadi. Ularni insonga va ekoloik muxitga ta’siri xaqida ko‘plab ilmiy-amaliy tavsiyalar berilgan.

Kimyoviy ximoya qilish moddalari turlicha zaxarlash xusuisiyatiga egadir, ba’zilari tezdan ta’sir etsa, ba’zilari sekin-asta to‘planib ta’sir etadi. Preparatni zaxarli darajasini aniqlash oso ish emas, chunki hayvonda sinalgan dorini inson uchun tug‘ridan-to‘g‘ri ko‘chirib aytish

emas. Masalan, kemiruvchilarga sinalgan va tekshirilgan dorni qoramolga ishlatib bo‘lmaydi. Shunday bo‘lsa ham dunyoda deyarli barcha turdag'i preparatorlar avval hayvonlarda sinaladi. Masalan, ko‘proq karamushda.

Ko‘pincha miqdoriy ko‘rsatkich tiribodagi hayvonni 50% da o‘lim bo‘lishi bilan belgilanadi. Ya’ni preparat kirtilgan hayvonni yarmi xalok bo‘lishi kerak. Bu miqdor detal doirasi deb atalib uni L D<sub>50</sub> belgisi bilan ko‘rstiladi. Ana shu shkola belgisiga ko‘ra kuchli zaxarlar deb paration, metasisboks, dinitrokrezol, nikotin, simob birikmali dorilari, aldrin, dildrin, endrin, DDT, geksoxloran, xlortion, molotion, diozinon, ko‘pgina organik fungitsidlar, fenouksus kislotasini xlorlashgan tuzlari kabilar xisoblanadi.

Agar xlorlashgan uglevodorodlar: masalan, DDT va TXTST (geksoxlor tsiklogekson) insonda qoldiq modda sifatida lipaid va yog‘larda uchraydi, shunigng uchun ular ham zaxarli xisoblanadi, shularni inobatga olgan xolda qonunchilik fo‘li bilan o‘simgiklarni ximoya qilishning yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lgan chegarasi (dopustimqe periodq) yoki PDK ishlab chiqiladi.

Bu suv ma’nosida inson organizmi uchun xar xil bo‘lgan preparatlarni oziq-ovqatdag'i maksimal darajasi miqdori tushuniladi. Masalan, yangi sabzavot, meva, un, don, don – dukkaklilar va x.k.z. maxsulotlarda. Yadroximikatlarni qoldig‘ini kimyoviy usulida belgilanishdan tashqari biologik test usulidan ham foydalaniladi, yoki ashsha, uzunbuunlar, chivin lichinkasi, akvariumdagi baliqlar orqali aniqlash ham mavjuddir. Vaqt o‘tishi bilan maxsulotdagi preparat qoldiqlari kamayadi.

Shularni xisobga olib kimyoviy preparat bilan ishlaganda ekin xosilini yig‘ishtirib terib olish o‘rtasida qancha vaqt o‘tshi belgilanadi.

Zararkuranda bilan kurashish murakkab bo‘lib, uni ijobiy, ham salbiy tomonlarini esdan chiqarmaslik kerak. Masalan, morkkasida chigirkaga qarshi geksaxaron sepilgan, oqibatda chayonlar kamaygan, shuningdek chivin va bezgak tarqatuvchi pashsha kamayib odamlar traxma va bezgak bilan og‘rimay qolishgan. Arlar va foydali hashoratlar soni kamayadi, ana shularning zararli shitovoq, oqqanotlar, shira va ionlar ko‘payib ketgan.

Kimyoviy moddalar sepilganda aniq ko‘rinadigan hashoratni ko‘zlab ish tutiladi, ammolarni kamayishi boshqasini yashashi uchun sharoitni yo‘q qiladi. Ya’ni ozuqa manbai keskin kamayadi, ba’zan ba’zi turlarni ko‘payishiga loib kelib, ular uchun ozuqa o‘simgikni o‘zi bo‘lib qoladi. Natijada ekinga zarar ortadi.

Ayniqsa, bunday organizmlarga kanalar, shiralar, shitovkalar, kirib, yuqri ko‘payish xossasiga ega bo‘lishadi, insektitsidga esa bardoshli bo‘ladilar, xatto o‘rgimchakkana DDT ta’sirida ko‘proq avlod bergen, bunga sabab tuxumlarni etishi ritmi o‘zgaradi. Bitta tuxum qo‘ymay, 2ta tuxum qo‘yadi. Urg‘ichisi umri qisqaradi. Ayniqsa, ko‘p yillik madaniy ekinlarda

hashoratlar soni ortib ketadi, bunga sabab yashash chun sharoit qulayligi va bardoshli populyatsiyalarni ortishidir.

Edafon. Kimyoviy moddalarni o'simliklarga sepilganda tuproqni bakterial florasida ba'zi o'zgarishlar ro'y beradi, chunki yog'inlar yoki havo namligi tomchisi orqali ular erga tushadi. Fungitsidlar bakteriyalarni ba'zilariga ingibitor, ba'zilar ildizda ekspertlar ajralishini tezlashtirib atrofdagi rizosfera xayoti uchun yaxshi sharoit tug'diradi. Bu hol zamburug'larda ham ro'y berib son jixatdan ortadi.

Lekin, qirilib ketgan turlar o'rniqa boshqasi ko'payib, tenglik vaziyati saqlanib qoladi. Ya'ni son jixatdan kamayish kuzatladi, ba'zan chidamli faol guruxlar keskin ortadi.

Ba'zan insektitsidlar tuproqdagi bakteriyani ba'zi turlariga qulaylik yaratadi, xatto dozasi ortganda ham ko'payaveradi. Masalan, geksaxloran ishlatgandan keyin axtobakter va nitrifikatsiya bakteriyalari rivoji ortgan. Tuproqqa tushgan fungitsidlarni, gerbitsid va insektsidlarni tuproq mikroorganizmlari sekin-asta parchalaydi. Tuproqda yashovchi nematodlar geksaxloranga salbiy ta'sir bildirishmagan, ular DDT ta'sirida 2 xtaftada son jixatdan ortib ketgan.

Tuproqdagagi kana va dumoyoqlilar insektitsidlar tomonidan kuchli ta'sirlanadi, ularni indikator sifatida foydalansh tavsiya etiladi. Ko'plab tajribalar xaydaladigan er bilan o'tloq-pichanzorlarni o'zaro taqqoslab o'rganilgan, bunda xlorlashgan uglevodrolarni uzoq ta'sir etishi aniqlangan. CHirindiga boy engil qumoq tuproqda geksaxloran mayda bo'g'imoyoqlilarga 3 yil davomida ta'sir ko'rsatgan. Yadoximikatlar vaqt o'tishi bilan tuproqni pastki qavatiga tushib ketadi. Umuman, DDT sepilgandan keyin dumoyoqlilar ko'payadi.

Tuproqqa sepilgan oltingugurt kglerodi tuproqdagagi faunani nobud qiladi. Masalan, 1m<sup>2</sup> ga 400g sera sepilganda 6 oydan keyin qayta tiklanadi, bunda dumoyoqli ham, kanalar ham, tuproqni yuzasida, keyinroq pastki qqavatida paydo bo'lган. Umuman, avval xukmronlik qilgan turlar kamayishi o'rnga kam sonli guruxlar ortganligi kuzatiladi.

Insektitsidlar tuproq makrofaunasiga ham ta'sir qilib ular preparatni konstrotsiyasini, ishslash muddatiga, maydon miqdori, qaysi guruxga mansub ekanliklariga bog'liqdir. Masalan, paration ta'sirida avvalo yomg'ir chuvalchanglari, enxitredilar, juftoyoqlilar, qo'ng'iz lichinkasi ko'proq ta'sirlangan. DDT, geksaxlran ularga kamroq ta'sir ko'rsatgan. Umuman, preparatlar ta'sirida bitta turdoshlar qirilib ketishi, boshqasi stimullashgani, uchinchisi xech qanday ta'sir olmagan bo'lib chiqdi.

Insektitsidlar madaniy o'simliklarga bilvosita ta'sir ko'rsatadi, ba'zan vaqtincha stimulyatsiya rult berad, ishlagandan keyin edofonni ko'p qismi nobud bo'ladi, natijada to'qimalardan suyuqlik ajralib chiqadi. Umuman, hamma preparatorlar guruxi uchun, shuningdek preparatlarni edofonning ta'siri yaxshi ham qilinmagan masaladir.

Dalachilik, ya’ni dexqonchilik qilinayotgan erlarda kamyoviy modalar ekin turi va uni zaralaydigan hashorat xiliga qarab ishlatiladi. Masalan, koloroda qo‘ng‘iziga qarshi kartoshkalar ishlanganda foydali jujmitslar soni keskin kamayadi. Bunda ular qo‘snni dalaga o‘tishib, kartoshkazorga 3-4xaftadan keyin qaytishgan. Bunday axvolni kplab preparatlarni don ekinlai, paxtachilik, sabzavot va poliz maxsulotlari etishtiriladigan dalalarda uchratish mumkin. Lekin, qaysi soxada qanday preparat ishlatishgidan qat’iy nazar yadoximikatlar bardoshlik oshib borishi aniqlangan, ba’zi hashorat guruxiga ximikat umuman ta’sir etmagan holda boshqasini kirishib ketishi hammaga ayon, ammo chidamlik shakllar paydo bo‘lishini sabadlari xozircha aniqlanmagan.

Fikrimizga hashoratlarni ekologik va fiziologik bardoshligini o‘zaro fikrlarini o‘rganish ko‘proq foyda bersa kerak. Etologik bardoshlik irsiy ko‘nikma bo‘lib, yadoximikatni so‘rib olmaydi, fiziologik chidamlik esa organizmdagi bioximiyyaviy jarayonlarga aralashishi oqibatida ro‘y beradi. Shuningdek, shu ikkala ko‘rsatkichga ekinlarni to‘la meyorda oziqlantirish yo‘lga qo‘yilsa bardoshlik angogika ortadi. Hashoratlarni chidamlilagini oshirishda neyrosekretor tizimi muxim ahamiyati ega bo‘lib qoladi. Chunki u ulardagi diononzoni, avlod berish sonini, dipoid va yog‘ almashinushi, boringki, barcha turdag'i xayotiy jarayonlarni boshqarib tarishga qodirdir.

#### Tayanch iboralar

Qishloq xo‘jalik mashinalari, asosiy ishini, vegetatsiya darida, hayvonot tarkibini o‘zgarishi, dalachilik sirlari, organik o‘g‘itlar faunasi, edafon, o‘g‘itlar etishmovchiligi, chirindi balansi, ekinlarni bir-biriga mosligi, hashoratlarni to‘planib qolishi, insektitsidlar, ekologik va fiziologik bardoshlik.

#### Nazorat savollari.

1. Tuproqni ishlashni undagi organizmlarga ta’siri?
2. O‘g‘itlash ishlarini ta’siri?
3. O‘simliklarni o‘g‘itlash biotsenozlardagi hayvonlarga ta’siri?
4. Yerdan foydalanishga qarab agrotsenozni shaklanishi?
5. Kimyoviy muddalarni biologik mavjudodlarga tasirini bayon eting?
6. Yerni ishlashni hashorat va kasalliklarni kamaytirishdagi ahamiyati?
7. Azot va fosfor berilmasa o‘simliklarni yaxshi o‘smasligini sabablari?
8. Nima uchun ekinlarni bir necha yil takrorlab ekib bo‘lmaydi?
9. Kimyoviy muddalar populyatsiyalar ekologiyaiga yomon ta’sir etish sabablarini bayon eting?
10. Madaniy va sun’iy o‘g‘itlarni agrotsenoz formasiga tasirini bayon eting?

#### Adabiyotlar

- 1.V. Tishler. «Selskoxozyastvennaya ekologiya» M 1571.
2. Fedorov .V.D. «Ekologiya» M. 1580.

3. M. Nazarov va boshqalar qishloq xo‘jalik ekinlarini parvarishlash zararkunanda va kasalliklardan ximoya qilish

Farg‘ona 2000 yil.

## **Nº6 MA’RUZA**

### **MARKAZIY OSIYO VA O‘ZBYEKİSTONNING QISHLOQ XO‘JALIGI MINTAQALARI**

RYeJA:

1. Yaylov va pichanzorlar.
2. Yaylov o‘simliklarini ekologik xususiyatlari.
3. Qoramol eksperimentlari faunasi.
4. Tuproq ustki qatlamining hayvonot olami.

1. O‘rta Osiyoda yaylov va pichanzorlar 60 foizdan ortiq madonni egallagan. Ular asosan cho‘l (Qoraqum, Qizilqum, Qarshi cho‘llari, Zomin, Nurota, Qoraqolpog‘iston yaylovlari, Farg‘ona vodiysi tog‘lik va tog‘ oldi rayonlari) va dasht, tog‘ oldi mintaqalarini egallaydi. Yaylovlar asosan ko‘y-echkilar, kamrok qoramollar boqiladigan joylardir. Ayniksa, tog‘li yaylovlarda namgarchilik yaxshi bulganidan o‘t-o‘lanlar serob bo‘ladi, hayvonlar eta olmaydigan joylarda pichan o‘rib tayyorlanadi.

Ekologik nuqtai nazaridan ko‘proq joyda o‘suvchi boshoklilar pichanzor bo‘la olmaydi, chunki ulardagi kurtak er ustida joylashgan, shuning uchun ular mexanik mahkam o‘rnashib olishga majbur bo‘ladi. Aslida hakikiy pichanzor o‘simliklari o‘tloqzor va botqoqda, suv ekalarida, torf yoki sho‘r o‘tloqzorlardan kelib chiqishgan, ya’ni litoral londshaft mevali xisoblanadi.

Yaylov va pichanzorlar fitotsenologik tushuncha bo‘yicha quyidagi guruhlarga bo‘linadi:

A. Boshqqli quruqlik pichanzorlarga 1) qumoq, qumli kaltsiy kam joyda o‘sadigan o‘simliklari vakillari kiradi. Bu oy dok yaylovchalar qo‘ylar uchun ma’kul, juda borsa bir marta o‘rib olinadi. 2) kontinental quruq o‘tloqzorlar V neotral tur tuproqlarda o‘sadi, qo‘ylar bokiladi, ba’zan bir marta pichan o‘rib olinadi. 3) Maxsul dorligi kam o‘tloqzorlar – turli o‘simliklar aralashmasidan iborat, avvallari o‘rmon bo‘lgan, kesilish natijasida xosil bo‘lgan erlardir. Bu joylar ekstensiv ishlatiladi, mol- qo‘ylar betartib boqiladi, ba’zan o‘ti pichan qilinadi.

V. Nam erda o‘sadigan pichanzorlar. Soxil bo‘yi o‘t-o‘lanlari tur o‘tloqzorlar. Bularga 1) yuqori hosilli pichanzor va yaylovlar kirib ular suv rejimi boshqarilib turiladigan o‘g‘itlanadigan va boshqa agrotadbirlar ishlatiladigan joylar. Ulardan pichan o‘rib olish, xaydab mol boqish, yozda o‘rib kuzda mol boqishga ajratiladigan erlardir. Bu joylar vodiyarda, tekisliklarda, tog‘usti yaylovlari kabilarni o‘z ichiga oladi. 2) Sho‘rlangan o‘tloqlar daryo bo‘ylarida o‘sadi. Bu erlarda qo‘y, mollar, parrandalar boqiladi. Ba’zida pichan qilib o‘riladi.

Yuqorida sanab o'tilganlardan tashqari kumlarda o'sadigan ko'p yillik yarim butasimon o'tlar va efimerlar asosan qo'ychilik, yilqichilik va parrandalar boqish uchun asosiy yaylov xisoblanadi. Bu erlarni xosildorligi ham (115-20 ts ga) shuningdek, pichanzordagi o'tlar tarkibi o'zgarishi bilan umurtqasiz hayvonlar, hashorat va boshqa jonzotlar guruhi, turi, avlodи turlicha bo'ladi. Ba'zi bir hashoratlar, masalan, chigirtka, kana, tsikodalar bisindikator vazifasini bajaradi, ya'ni yashash omillari qaysiki, ustivorligini bildirib turadi. Umuman, yaylov va pichanzorlarda xo'jayin o'simliklarni soniga qarab shu erdagi hayvonot va hashorat turlari uzaro farq qilinadi, ya'ni turlarni ba'zan ko'p yoki kamayib ketishi ular uchun ozuqa manbai va sharoitni qay darajada bo'lishini ko'rsatib turadi.

Tabiiy pichanzordagi o'tlar va begona o'tlar botanik tarkibi bo'yicha o'sayotgan mintaqasiga qarab turlicha bo'ladi. Bu o't-o'lanlar 30 turdan 60-70 turgacha bo'lgan turlarni o'z ichiga oladi, lekin alp yaylovlarda turlar soni 1500 gacha borishi aniqlvngan. Bu o'tlarni ichida begona o't deb hayvonlar emaydigan turlarga aytiladi. Shuningdek, o'tlar o'sgan joyda ular uchun noqulay sharoit yaratadiganlari ham begona o't hisoblanadi. Pichanzorlarni begona o'tlar bilan ifloslanishi turli sabablarga kura ro'y beradi.

O'tzorlarda zaxarli o'tlardan qirq bug'in, bezvremennik, lyutik, sintik, shavel kabilarni ko'paytirmaslik kerak. Bu joylardagi begona o'tlarni kirishda tuzi uksus kislotali xlorli tuzi va boshqalar bilan ishlangan pichanzorda boshqlilar soni ortib, dukkaklilar keskin kamayib boradi. Bu preparatga shuningdek, krestguldoshlar, murakkab guldoshlar, shavel kabi o'simliklarga ham zaxarli ta'sir etadi. Demak, pichanzorlarni eppasiga ximiyaviy ishlov kilish fakat zaxarli yoki begona o'tlar ko'paygan maydonlarda ishlatish kerak. Kimyoviy ishlash o't o'rib olingandan keyin unib chikaetganda ishslash kerak. Yaylovlarda avval hayvon emagan joyni urish kerak. Keyin 2 marta gerbitsid bilan ishlanadi. (xaftada oralatib) shundan 2-3 xaftha utkazib tekshirilganda o'tdan alkoloid simon moddalar kamaygan bo'ladi. Shu vakt ichida o't tarkibidagi alkoloid plyustrofin keskin kamayishi kuzatiladi. Pichan va yaylovlarga chim qavati mahkamlanishi uchun gerbitsid bilan azotli o'g'it solinadi. Pichanzor va yaylovda begona o'tlarda fosfor miqdori ortadi. Otquloq va ba'zi o'simliklar begona o't hisoblanadi, hayvon uchun yaxshi ozuqadir. Yaylov va pichanzorlar tuprog'i strukturasi yomonlashib borayapti bunga sabab noto'g'ri foydalanish, ozuka va suv balansini hisobga olmaslik, RK miqdoridagi fosforni, kobalt, mis, magniy, marganets va temir moddalari kam o'zlashib zahirada qolib ketishi va boshqalar. O'tli pichanzorlarni turlicha turlardan iborat bo'lishi hayvonlar sog'ligiga ijobiy ta'sir etadi.

Ba'zan yaylov kasali hisoblangan gipomagnezemiya qoramollarni kasali bo'lib molxonada uzoq ushab turilgandan so'ng yaylovga ko'yilganda kasallik kelib chikadi, chunki balansli ozuqlanish natijasidir. Avvalo, magniyni etishmovchiligi, kaltsiy, natriy, A va D darmondorilari

etishmasligidan kaliyni ortiqchaligidan kelib chiqadi. Bazi mikroelementlar, mis, kobalt etishmaganda bola olish kamayadi, ozib ketadi, ba'zan nobud bo'ladi. Ba'zan hayvonlarda lizuxa deb nomlangan kasallik ro'y beradi, bu asosan ularda yungini to'kilishi, ozib ketishi kabi belgilar bilan kshrinib qoladi. Tuproqqa kobalt solinsa yoki ovqatiga berib turilsa bu kasallik yuq bo'ladi, mis shkali solingan yaylovda bokilgan mollarda kasallik sodir bo'lмаган. Kobalt V 12 vitaminini asosidir. Biokatalizator bo'lib xizmat qiladi, bu vitamin ichak bakteriyasi tomonidan ishlab chikariladi, afsuski, usimlik uni sintez qila olmaydi. Mis temirni gemoglobin sintezida ishtirokini ta'minlaydi.

Yaylov va pichanzorni o'g'itlash muxim ahamiyatga ega bo'lib, o'simliklarni tez va to'yimli qilib o'stiradi. Azot, go'ng, fosfor, kaly. Mikroelementlar bular hamma o'simliklar uchun eng zarurdir. Shuning uchun o'g'itlash ishlarini reja asosida har yili o'tkazib turish lozim. Kuchli rivojlangan maydonlarda begona o'tlar keskin kamayadi. O'g'itlangan maydonlar xosildorligini ortishi chorva mollarni soni va maxsuldarligini oshirib kolmay, tuproqni chirindi bilan boyitadi. Tuproqni kombollashib kelishga olib kelmaydi. Insoniyat uchun ozuqa manbalarini serob bo'lishiga xizmat qiladi.

Hayvonlarni yaylovda boqish (xaydab boqish)ba'zi o'simliklarni butunlay yo'q qilib yuborsa, ba'zilari uchun ko'payish manbai, yana ba'zilari uchun birinchi marta rivojlanishga imkon yaratadi. pichan qilib urilgan yaylovga qaraganda mol kiritilgan maydon o'tlari ildizi yaxshi o'smaydi. Uni turli sabablari: o'simlik turiga hayvonni o'zini tutishiga, yaylovdan foydalanish usuli kabilar kiradi.

Hayvon podasini yaylovga kiritish doimiy va vaqtinchali (reja bilan) bo'ladi. Sistemasiz xaydab boqish o'tlarni yaxshi o'stirmaydi, zararli o'tlar ko'payadi. Podani mayda zagonlarga bo'lib boqilganda o'tlar bilan tekis iste'mol qilinadi. Doimo poda kiritilgan yaylovlarda baland o'suvchi usimliklar soni keskin kamayadi. Ularni ko'pchiligi ildiz atrofidan chiqqan novdalar bilan tulib turadi. Agar qurg'oqchil yoz bo'lsa qayta kukarib tiklanish kuzatilmaydi, tuproq eroziyasi kuzatiladi. Yaylovlarni o'rtacha zagonlarga bo'lib, hayvonlarni navbat bilan boqish kerak,. Bunda bo'shagan maydon o'g'itlanadi, vaqtincha dam beriladi, natijada qayta usish va tiklanish ro'y berib maxsuldarligi oshadi.

Poda xaydalish oqibatida hayvon tuyoqlari tuproqni zichlaydi, ba'zan o'simlik ildizlari shikastlanadi, natijada qurib qolishi mumkin. Foydali o't o'rniga zaxarlilari avj oladi. Yaxshi o'g'itlangan, ba'zan yog"inlardan sung tuproq ustki qavati yumshab hayvon tuyog'i uni kuchli qayrib tashlaydi. Ildizi o'zaro birikib ketgan yaylovlarda tuproq zichlanishi kamroq buladi. O'g'itlangan yaylovlarda boshoqli o'tlar tez o'sadi, masalan, timofeevka va reygras kabilar. Yaylovlarni suv uzoq vaqt bosib qolsa yangi turdag'i o'simliklar paydo bo'lib, xafvonlar uchun emishli ular kamayadi. Agar yaylov xo'jalikda almashib ekiladigan ekinlar xisobiga olib borilsa

albatta bu erlarni xosildorligi 20-30 foiz ortiq bo‘ladi, bunda podani reja asosida olib kirilishi shart. Hayvonlar o‘rtasida o‘tlarni o‘zaro bo‘lib iste’mol qilish uchraydi. Masalan, qoramol eb ketgan o‘tni otlar emaydi va aksincha sungra avvlrok ot boqilgan yaylovda o‘sib chiqqan o‘tni qoramol yaxshi eydi, chunki ot go‘ngida o‘sigan o‘tlar hamda ot emagan o‘tlarni ishtaxa bilan eyishadi.

Yaylovlar o‘z navbatida tuprokdagi hayvonlarga ta’sir qiladi, ya’ni podani kirishi jonivorlarga har xil ta’sir qilishi aniqlangan. Masalan, qo‘ylarni tuyog‘i orsidagi yumshoq joyda hashoratlarni yashash makoni bo‘ladi. Doimo poda xaydalaganda sichqonlar va ba’zi hashoratlarga salbiy ta’sir qiladi. Agar poda kirishdash maydonlar saqlansa sichkonlar yana kupayadi. Umuman yaylovda podani boqilishi ko‘plab hashoratlarni kamayishiga olib keladi. Ayniqsa kanalar, shira va tsikodalarni soni qisqarib ketadi. Demak, yaylovdagi o‘tlar turi va mahsuldor qismi yanshab turganda o‘sha errdagagi fitofaglar, hayvonlar va tuproq faunasi gurkiran rivojlanadi, poda kiritilib utlar kamayganda kserofil sharoitda yashaydigan hashoratlar ko‘payadi (masalan chigirkalar).

Qoramol ekskrementlari faunasi ko‘pgina hayvonlar go‘ngda hayot kechiradilar, ya’ni moddalar almashinuvida kuzatish mumkin. Masalan, qoramol, ko‘y eki chaynovchi hayvonlar bo‘lidan joyda qo‘ng‘izlarniko‘lari uchramaydi. Hayvon tezagi yaylova uzoq vaqt turadi, ularni chirishi 3-5 yil davom etadi. Bitta qoramol tezag go‘ngi 365 m<sup>2</sup> joyni egallaydi, uni ostidagi o‘tlar nobud bo‘ladi. Keyinroq bu erdan begona o‘tlar o‘sib chiqadi, natijada yaylov xosildorligi kamayadi. Bitta qoramol go‘ngi 19 marta o‘zidan ortiq bo‘ladi, go‘ngda esa hashoratlar soni havonni 20 foiz miqdorida bo‘lishi aniqlangan. Go‘ngni chirishida bakteriya, zambrug‘, nematodlar, kanalr katta rol o‘ynaydi. Eng muximi qo‘ng‘izlar va juft qanotlilar bo‘lib, ular xid bilishi oqibatida bunday erlarga uchib kelishadi.

Go‘ng pashshasi 3 ta ekologik gurux bo‘yicha tuxumlaydi: 1) tuxumlar nafas olish teshigiga ega bo‘lgan holatda qo‘yiladi, u tezakni ustiga chiqib turadi. 2) go‘ngni ichiga qo‘yilib, yupqa bilan o‘ralgan bo‘ladi. 3) tuxumlari qalin qobiq bilan o‘raladi, ular go‘ng ustiga yoki yaqindagi o‘t bargiga qo‘yiladi. Umuman 8-10 kunda tezak turli teshik bilan boyitiladi. Ularda zambrug‘ mitselliylari o‘sadi. Xarorat 18-35 gradusda chirish jaraeni davom etadi. Shu davrda zambrug‘lar va bakteriyalarni o‘plab rivoji kuzatiladi. Ular uni chiritadi, tagidan o‘tlar o‘sib chiqadi. Dumoyoqlilar va kanalar, juftoyoqlilar, sim qurtlar, yombir chuvalchanglari kelishadi.

Qoramol tezagi bilan uni egallovchilari orasida ko‘p tomonlama trofik aloqa mavjuddir. Ba’zi turlar parazitlik qilishadi. Parazitlar ichida aydoqchilar ham bor. Nematodlar ko‘pgina kana va hashoratlar uchun ozuqa hisoblanadi. Umuman, hayvon tezagida yashovchilar o‘rtasida xo‘jayin yirtqich va ular uchun o‘lja bo‘ladigan mikroorganizmlar, hashoratlar mavjud bullib,

ozuqa zanjirini tashkil etadi, natijada tezak ovqatlanish zanjirini asosi bo‘lib, qoldiq hayvonlar chiqindisi tuproqni boyituvchi manba bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek hayvon tezagi. CHumchuq, qarg‘a, er qazuvchi hayvonlar, tipratikan kabi jonzotlar uchun ozuqa manbai bo‘lib xizmat qiladi. Demak, tezak ovqat sifatida juda kuplab biotsenozada ishtirok etuvchi jonivorlar uchun ovqat, tuproqqa esa unumdorlik manbai bo‘lib xizmat qiladi.

Yaylov hayvonlari parazitlari. Hayvon parazitlarini ko‘plari organizmdan tashqarida, yaylovda yashydi, shuning uchun hayvonlarni zararlanish manbai shu joylar hisoblanadi. Quyida ba’zi juftga notli, chuvalchang va iks simon kanalar misolida parazitlik xususiyatini kurib chiqaylik.

Qon so‘rvuchi juftoyoqlilarga ayniqla chivin pashshasi xavflidir, ular tuxumlarini oqayotgan suv bo‘yidagi o‘simliklarga yoki tglarga qo‘yishadi, keyinchalik lechinkalar tumshuqchasi bilan tanani oxirgi qismiga yopishib oladi, ba’zan qalin qavat tashkil qilishadi, bir necha yuzlab kishilarga uchib boradi, yil davomida bir qancha marta avlod beradi. Katta xajmdagi pashshalar zaxarini hayvonga utkazadi.

Boshqa qon so‘rvuchilarga Oqbosh ot yarasi, Apor chivinlari kirib, yaylovda ko‘plab tarqaydi. Ularni lichinkasi suvda o‘sadi. Ularni sut kislotasi xidi kelgan hayvonga utishi kuzatiladi, ya’ni hayvon terlagandagi xidlar o‘ziga ularni tortadi. O‘rta iqlimli o‘lkalarda qoramol va otlarni suna hamda yomg‘ir zamburg‘lari katta zarar keltiradi, yoz oylarida uchadi, shamol va bulutli havoda faolligini yo‘qotadi. Ayniqla so‘na qora ranga o‘ch bo‘ladi. Ular kunduzi o‘tlarda, daraxt va butalarda yashaydi,. Kechasi butazorlarda kun kechiradi. Shu erlarga tuxum ko‘yadi, ularni ko‘payishi +15 oS dan kam bo‘lmagan, havo namligi 70 foiz bo‘lsa o‘ng‘ay hisoblanadi. Lichinkasi nam tuproqqa 10 sm qavatga tushib oladi, ular yomg‘ir chuvalchangi va boshqa hashorat lichinkasi bilan ovqatlanadi, uchib chiqib hayvon qonini so‘radi. Urg‘ochi so‘nalar faqat o‘simlik shirasi bilan ovqatlanadi. Ular hayvonlarni xidi, qoni, ko‘z shirasi, tiralgan joylarga qo‘nishadi, ba’zan otlarni ham chaqadi. Yana ba’zi turlar ham hayvon qonini surib yashashadi.

Bo‘kalar otlarni oshqozonida yashaydi. Ularni lichinkasi endoparazitlik kilib oshqozonda yashaydi. Ular tuxumdan chiqishadi, yaylovda tuproq usti kerak. Pashshasi arilar iyul oyida uchib chiqadi, ovqatlanmaydi, o‘zaro munosabatda bo‘lishmaydi. Bir necha vaqt o‘tgach urg‘ochilari 1000 dona tuxumini otlarni oldingi oyogiga qo‘yadi. O‘sha erni ot yalaganda namlanib lichinka chiqadi, og‘ziga o‘tib , talok, gertanga, keyin oshqozonga o‘tadi. O‘sha erda 3 chi stadiyani o‘taydi. Otni zararlashga ularni soni ta’sir etadi. Agar 200 lichinka bo‘lsa ot kasallanmaydi (toylarda 80-100 donasi zaxarlaydi). Qoramol buqalari ham yovvoyi amal ariga o‘xshaydi, lekin u boshqa oilaga kiradi. Buqalarni bu ikki hayvondani turlari og‘iz bo‘shlig‘i redukprovonlashgan. Buqa pashshasi bir necha kun yashaydi, shu muddatda chatishadi va tuxum

qo‘yadi. Ularni uchish diametri 5 km dan oshmaydi. Demak, o‘tloq yaylovzorlarda yashashni afzal ko‘rishadi. Buqalar kunduzi uchadi, lekin soat 20 dan 6 gacha havoga uchmaydi. O‘tlab yurgan qoramolga birdan xujum qiladi, 500 tagacha tuxumni yon tomoniga eki oyog‘iga qo‘yadi. Lichinkalar chiqgach teri ostiga o‘tadi, so‘ng nerv tolalari bo‘yicha spinomozg kanaliga o‘tadi. O‘sha erda dekabr – mart oylarigacha yashaydi. Keyin hayvonni orqangi qismiga o‘tadi. Bu erda ular terida teshik xosil qiladi, o‘sha erdagisi shishlarda apreldan iyun-iyul oyigacha qoladi.

Lichinkalar teri osti bog‘lovchi tuqima orqali kukrak qafasi ostigacha etib boradi, o‘sha erda 6 xafka yashaydi. Bu erda 70 yil yashaydi, parelda soat 4-8 o‘rtasida tanadan chiqib ketadi, tuproqqa tushadi. Ortiqcha nam tuproqda ularni ko‘payishiga xalaqit beradi. Shuning uchun namgarchil bo‘lgan yillari ular kamayadi. Kukolkadan 3-6 xafka ichida katta eshdagi buqalar rivojlanib chiqadi, ularni dushmani asosan qushlar xisoblanadi. Ulardan hayvonlarni ximoya qilish uchun kimyoviy dorilar bilan ishslash yo‘lga qo‘yilgan. Dala sichqonlarining parazit buqalari hamma joyda uchraydi, lekin ular uchun uncha xavfli emas.

CHuvalchanglar yaylovlarda. Uy hayvonlarida parazitlik qiladilar. Ularni kupchiligi dunyo bo‘yicha tarqalgan. Otlarda parazitlar uchrab turadi. Shuningdek lentasimonlar ham zarar keltiradi. Kulonlarda bular anemiya kasalini keltirib chiqaradi. Xatto o‘limga olib keladi. Shuningdek chuvalchanglar potogen bakteriyalarga yo‘l ochib beradi, ular ajratgan toksinlar og‘ir kasalliklar olib keladi, ularni tuxumlari axlat bilan tashqariga chiqadi. 1-2 yoshdagi lichinkalar tezakdagi bakteriyalar bilan 3 yoshdan boshlab qorongi vaqtida o‘tlarga o‘tadi. Ikki yil ichida xujayin organizimida ular yashab turadilar, hayvonni bahor va kuzda etarli nam bo‘lganda zaxarlaydi. 3 yoshdagi lichinka ovqat bilan hayvon ichagiga o‘tadi, 4 chi yoshga o‘tadi, ular tirik to‘qimadagi moddalar bilan ovqatla-nadi, sungra oshqozongacha boradi, shu erda katta yoshga o‘tadi, uzunligi 2-4 sm dan 5-15 mm.gacha bo‘ladi. Natijada hayvonni zaxarlaydi. Otlarni askoridalarga chidamliligi yoshi kattalashgan sari orta boradi. Askorida tuxumi tabiiy sharoitda rivojlansa hayvonni zaxarlaydi. Yetilgan tuxum ovqat bilan ichakka utadi, lichinka chiqadi, ichak devorlariga o‘tiradi, qonga utib butun tanaga o‘tadi. 8 kundan keyin ular yana ichakka o‘tadi, u erda katta yoshga kirib qonni buzili-shiga olib keladi, astasekin nerv faoliyatiga ta’sir etadi. Umuman bunda infektsion anemiyaga o‘xshash kasallik sodir bo‘ladi. Hayvonlarda uchraydigan parazitlardan jigar qurti hamda nematodlarni ko‘rsatish mumkin, ularni katta- ligi 2-4 sm. ular hayvon go‘ngi bilan tashqariga chiqadi, suvgaga tuxum tushishi kerak, undan meratsidin xosil bo‘ladi. Gidra hashoratlari chuvalchang kabilari bilan yana hayvonga qaytadi. Lentasimon chuvalchanglardan sigir va qo‘ylarni zararlaydi.

